

KASB-HUNAR LEKSIKASI TILSHUNOSLIKNING O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

Mamatkulova Zilola Rejabaliyevna

Far DU akademik litseyi o'qituvchisi Zilolamsmstqulova 1988@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasb-hunar leksikasi haqidagi nazariy qarashlar, termin va leksemasining tilshunoslik lug'atlaridagi izohi va tadqiqotlardagi sharhlari izohlab o'tilgan. Kasb-hunar leksikasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar sharhlangan. Kasb-hunar leksikasining asosiy begilari ochib berilgan.

Kalitso'zlar: Kasb-hunar leksikasi, kasb leksemasi, termin leksemasi, kulolchilik kasb-hunar leksikasi, differensial va integral belgilar.

Abstract: In this article, the theoretical views on the lexicon of the profession, the explanation of the term and lexeme in the linguistic dictionaries and the comments in the studies are explained. Researches on the lexicon of professions are reviewed. The main terms of the professional lexicon are revealed.

Keywords: Vocational lexicon, occupational lexeme, term lexeme, ceramic vocational lexicon, differential and integral symbols.

Yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi chuqur islohotlar kasb-hunarga oid so'zlarni o'rganish zaruratini belgiladi. Tilshunos olima I.Pardayeva¹ning zargarlik sohasi leksikasi tadqiqiga qaratilgan izlanishlari bu borada qilingan ishlardan biridir. U zargarlik terminlarining tematik tasnifida zeb-ziynat buyumlari nomlarini tana qismlariga nisbatlash orqali tasniflab, qo'lga, barmoqqa, quloqqa, peshonaga, sochga, burunga, bo'yinga taqiladigan turlarini farqlagan. Narsa-buyum qismlarining nomlovchi zargarlik buyumlarini yasash jarayoni, uning xomashyosi va bu jarayonda ishlatiladigan ish qurolining nomini ifodalovchi terminlar, mazkur kasb faoliyat bilan bog'liq nomlarni anglatuvchi leksemalarni tasniflagan. Sohaga oid birliklarning boyishida ichki manbaning o'rni haqida fikr yuritib, affiksatsiya va kompozitsiya usulida yasalgan zargarlik terminlarini lingvistik tahlil etgan.

N.Mamatovning "O'zbek paxtachilik terminologiyasi"² nomli nomzodlik dissertatsiyasi ham bu borada muvaffaqiyatli tadqiqotlardan biri bo'ldi. Tadqiqotda olim paxtachilik bilan bog'liq atamalar va ularning tasnifi, termin va uning so'z va so'z birikmasidan farqi, tilshunos olimlar tomonidan terminga berilgan ta'riflar, O'zbekiston hududida paxtachilikning rivojlanish tarixi va sohada yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning boyish yo'llari haqida qimmatli fikrlarni keltiradi. N.Mamatov o'z tadqiqot ishida soha terminlari va atamalarini farqlaydi. Kasb-hunar leksikasi tarkibini soha rivojlanishiga tegishli bo'lgan ma'lumotlar va zamonaviy tushunchalarni ifodalovchi birliklar bilan kengaytiradi.

¹ Пардаева И. Ўзбек тилининг зargarлик терминологияси: Филол. фан. номз... дисс. –Тошкент, 1994. –128 б.

² Маматов Н. Ўзбек пахтачилик терминологияси: Филол.фган. номз ... дисс. автореф. –Тошкент, 1994.– 24 б.

X.Jabborov³ ning dissertatsiyasi dehqonchilik sohasiga oid terminlar tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda dehqonchilik leksikasi asosan tarixiylik jihatdan o‘rganilib, sohaga oid leksik birliklarning etimologiyasi, o‘z qatlamga oid so‘zlar va o‘zlashgan so‘zlar tarkibi – qadimgi turkiy, turkiy va mo‘g‘ulcha, o‘zbekcha so‘zlar qatlami yoritiladi. Olim dehqonchilik leksikasining yasalish xususiyatlarini ichki va tashqi imkoniyat orqali yasalgan so‘zlar, affiksatsiya, kompozitsiya va murakkab birikmalarining yasalishi xususida lisoniy dalillar keltiradi. Shuningdek, dehqonchilik leksikasi mavzuiy guruhlarining motivlanish xususiyatlarini ilmiy asoslaydi. U dehqonchilikning ichki guruhlari: paxtachilik, polizchilik, donchilik, sabzavotchilik, mevachilik (bog‘dorchilik), gulchilik, ko‘katchilik sohalariga oid jami 5045 ta birlikni tadqiq etadi. Olim nafaqat sohaga doir lug‘aviy birliklarni, balki dehqonchilik madaniyati bilan bog‘liq tarixiy, etnografik, arxeologik masalalarni ham uyg‘unlikda o‘rgangan.

M.Axatova⁴ o‘z izlanishlarida yog‘ochsozlik leksikasini tadqiqot obyekti sifatida tanlagan. U yog‘ochsozlik terminlarining shakllanish tarixi, mavzuiy guruhlari, soha terminlarning ichki va tashqi manba hisobiga boyish yo‘llari, soha terminlari o‘rtasidagi sinonimiya va variantdoshlik hodisalari ustida ilmiy izlanishlar olib borgan. Ishda yog‘ochsozlik bilan aloqador yigirmaga yaqin kasb egalari: uysozlik, aravasozlik, qayiqsozlik, javonsozlik, eshiksozlik, beshiksozlik, sandiqsozlik, panjarasozlik, mebelsozlik, duradgorlik, yog‘och o‘ymakorlikka oid terminlarni o‘rganib, yaxlit sistema sifatida tahlil etgan. Tadqiqotchi terminlarning yasalish usullarini aniqlab, boshqa sistemadan farqli jihatlarini yoritgan. Ularning tarixiy-etimologik xususiyatlari va genetik asoslarini ilmiy dalillagan.

O.O‘rinova⁵ qoramolchilik sohasiga doir terminlarni leksik-semantik jihatdan tadqiq etib, soha terminologiyasining mazmuniy maydon sifatida o‘rganish muammolarini o‘rtaga tashlagan. Qoramolchilik terminlarining leksik-semantik tavsifi, qoramol nomini bildiruvchi terminlar, qoramol anatomiysi va ularda uchraydigan kasalliklar, ularning parvarishi, cho‘ponlik hayoti bilan bog‘liq terminlarni o‘rgangan. Qoramolchilik terminlari o‘rtasidagi giponomik, partonomik hamda ma’nodoshlik hodisalari yuzasidan tadqiqot olib borgan.

M.Aliyeva o‘zbek milliy gazlama va dizaynerlik sohasi doirasidagi terminlarning ma’no tuzilishi, semantik-grammatik xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar olib borgan.

X.Berdiyev⁶ o‘zbek tilining o‘tovsozlik leksikasiga oid birliklarni yozma manbalarda, o‘zbek adabiy tili va shevalarida qo‘llanishi, ularni tartibga solish yuzasidan batafsil ma’lumotlar berib, o‘tovsozlik sohasining terminologik apparatini shakllantirgan. Soha leksikasi terminlari o‘zbek xalqining milliy an’ana va qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvistik birliklar ekanligini ta’kidlab, o‘tovsozlik terminlarining adabiy til va Markaziy Osiyo turkiy tillari doirasida fonetik, leksik-semantik jihatdan farqlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishini amalga oshirgan va materiallar asosida dalillab bergen. Jumladan, Alisher Navoiy

³ Жабборов Х. Ўзбек тилининг дехқончилик лексикаси: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2017. – 75 6.

⁴ Ахатова М. Ўзбек тилининг ёғочсозлик терминологияси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 132 6.

⁵ Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.

⁶ Бердиев Х. Ўзбек тилининг ўтвосозлик лексикаси: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2017. – Б. 47.

asarlari lug'atidagi, "O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati"dagi 60 ga yaqin, "Surxondaryo o'zbek shevalari lug'ati"dagi 20 dan ortiq, "Qashqadaryo o'zbek xalq shevalari so'zligi"dagi 100 dan ziyod, "Zominning til qomusi"dagi 30 ga yaqin, shuningdek, "O'zbek klassik asarlari uchun lug'at"dagi 40 ta, "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"dagi 30ga yaqin so'z/terminlar⁷ ustida tadqiqot ishlarini olib borgan. O'tovsozlik terminlarining o'zbek tilida o'ziga xos o'ringa ega ekanligini ko'rsatib bergan. O'tovsozlik leksik sistemasida, asosan, o'z qatlamga oid terminlardan keng foydalaniishi, o'tovsozlik terminlarining mavzuiy guruhlari ularning giponomik, partonomik, graduonomik, sinonimik, antonimik, omonimik munosabatlari hamda o'tovsozlik terminlarining yasalish usullarini sharhlab bergan. O'tov materialllarini tayyorlash va uni tiklashni ifodalovchi quyidagi tematik tasnifini ko'rsatib o'tgan: asbob-uskunalar (pichoq, qaychi, bolta); jarayonlarni anglatuvchi (allabo'baklamoq, bilaklamooq); shaxslarni ifodalovchi (erganakchi, bilakchi); uy-ro'zg'or buyumlari (nonqop, tarqich); yog'och materiallarni anglatuvchi (suyak, uvuq); matolarni anglatuvchi (ko'k, ostlik); bezakli materiallarni anglatuvchi (doiragul, do'ltaшox); to'shaladigan materiallarni anglatuvchi (takiyamat, oqbosma); ijod namunalarini ifodalovchi (tasviriy san'at asarlari; she'riy va nasriy namunalar: she'r, terma, topishmoq, maqol; ijro asarlari: qo'shiqlar va h.k.)⁸.

M.Muhammadaliyeva o'zbek tilidagi umumiyligini kasb-hunar nomlarining leksik-semantik va derivatsion xususiyatlarini tadqiq etib, o'zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining taraqqiyoti va takomillashuvi, uning tarixiy-etimologik xususiyatlariga ko'ra tasnifi, lug'aviy-ma'noviy guruhlari, til sistemasida dubletlik va sinonimlik holatlari, kasb-hunar nomlarining derivatsion usullari va modellarini aniqlash, o'zbek tilida yangi paydo bo'lgan kasb-hunar nomlarining leksik-semantik tahlillari yuzasidan jiddiy izlanishlar olib borgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asaridagi 40 ga yaqin, "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"dagi 300 dan ortiq kasb-hunar nomlarining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilgan⁹.

A.Ibatova o'zbek tilida non va non mahsulotlari bilan bog'liq lug'aviy birliklarni tahlil etib, mazkur birliklarning sistem-struktur xususiyatlari, lingvokulturologik, konseptual jihatlarini ochib bergan. Dissertatsiyada non va non mahsulotlariga oid terminlar, ularning terminologik tizimda tutgan o'rni, ular bilan bog'liq etnografizmlar o'rganilib, o'zbek tilining milliy an'ana va qadriyat-larini ifoda etuvchi lingvistik birlik sifatida tahlilga tortilgan. Tadqiqotchi non va non mahsulotlari bilan bog'liq birliklarning mazmuniy guruhlari, ular orasidagi munosabatlarni asoslash, yasalish usullari hamda sohaga doir birliklarning lingvokulturologik, konseptual xususiyatlarini ochib bergan. A.Ibatova non leksemasing turkiy tillar va xalq shevasida ifodalaniishi xususida fikr yuritib, Samarqandda non va non mahsulotlariga nisbatan qo'llanadigan 50 dan ortiq, Zomin tumanida 30 ga yaqin, Qashqadaryo viloyatida 20 ga yaqin, Qoraqalpog'istonidagi o'zbek shevalarining 10 ga yaqin birliklarini semantik jihatdan o'rgangan¹⁰.

⁷ Бердиев Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс.

- Самарқанд, 2017. - Б. 55.

⁸ Бердиев Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс.

- Самарқанд, 2017. - Б. 77-78

⁹ Муҳаммадалиева М. Ўзбек тилида касб-хунар номларининг лексик-семантик ва деривацион хусусиятлари: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. - Фарғона, 2021. - 137 б.

¹⁰ Ибатова А. Ўзбек тилида нон ва нон маҳсулотлари билан боғлиқ луғавий бирликлар тадқиқи: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. - Самарқанд, 2023. - Б. 14.

Yuqoridagi ilmiy izlanishlardan ko'rindik, professional leksikaga oid birliklar ma'nosini bilish, ularning yuzaga kelishi, shakllanishi, nomlanish tamoyili, etimologik kelib chiqishi, ular ustida jiddiy lingvistik tadqiqotlar olib borish milliy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida kasb-hunar leksikasini asl holda saqlab qolish va kelgusi avlodga shu holicha yetkazish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994.
2. Маматов Н. Ўзбек пахтачилик терминологияси: Филол.фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994.
3. Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2017.
4. Ахатова М. Ўзбек тилининг ёғочсозлик терминологияси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004.
5. Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.
6. Бердиев Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2017.
7. Муҳаммадалиева М. Ўзбек тилида касб-хунар номларининг лексик-семантик ва деривацион хусусиятлари: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2021.
8. Ибатова А. Ўзбек тилида нон ва нон маҳсулотлари билан боғлиқ луғавий бирликлар тадқиқи: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2023.

**O'ZBEKSITONDA AVTOMOBIL TRANSPORTIDA, TEMIR YO'LLAR BO'YLAB
VA HAVO TRASPORTLARI ORQALI POCHTA TASHISHNI TASHKIL QILISH
MEXANIZMLARI**

Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li

Urganch Davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi palvanbayevumidbek@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishda avtomobil, temir yo'l va havo transportlaridan foydalanish holatlari o'rganilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *pochta aloqasi, avtomobil transporti, temiryo'l transporti, havo transporti, pochta xizmatlari.*

Аннотация: В данной статье изучено и проанализировано использование автомобильного, железнодорожного и воздушного транспорта при оказании почтовых услуг в Узбекистане.

Ключевые слова: почтовая связь, автомобильный транспорт, железнодорожный транспорт, воздушный транспорт, почтовые услуги.

Annotation: This article studies and analyzes the use of road, rail, and air transport in the provision of postal services in Uzbekistan.

Keywords: postal services, road transport, rail transport, air transport, postal services.

Transport jarayonlari pochta aloqasi xizmatlarini butun ishlab chiqarish jarayonining asosiy va ajralmas qismi hisoblanadi. Pochta transporti aloqa korxonalarining butun tarmog'ini yagona tizimga bog'laydi. U pochta aloqasining asosiy vazifasi – pochta jo'natmalarini jo'natuvchidan manzilgacha aniq, uzlusiz va o'z vaqtida jo'natilishini, demakki, aholi, davlat boshqaruvi organlari va iqtisodiyot sohalariga yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni bajarishda hal qiluvchi bo'g'in hisoblanadi. Mamlakatimizda pochta aloqalari tizimi barcha turdag'i transportdan foydalanish asosida quriladi.

Pochta aloqasi ob'ektlari pochta jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun ularga tegishli bo'lgan transport, pochta vagonlari, avtomobillar, shuningdek shartnoma asosida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan transportdan foydalanadilar. Pochta jo'natmalari va pul mablag'larini tashish uchun foydalaniladigan pochta aloqasi ob'ektlarining transport vositalari qonun hujjatlariga muvofiq maxsus farqlash belgilari ega bo'lishlari mumkin.

Avtomobil transportida pochta tashishni tashkil qilish va rejalshtirish

Avtomobil transporti pochta transportining asosiy turi bo'lib hisoblanadi va shahar ichi, tuman ichi, shoxobcha, viloyat ichi va magistral marshrutlarda foydalaniladi.

Avtomobil transportida yuk tashuvchi tadbirkorlik subyektlarining avtotransport vositalari parkini yanada yangilash va modernizatsiya qilish, mahalliy yuk tashuvchilar uchun qulay raqobat muhitini yaratish, shuningdek, avtomobilda xalqaro tashuvlar sohasini rivojlantirishning ijobjiy tendensiyasini saqlab qolish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 19.08.2021 yildagi PQ-5225-sonli qarori qabul qilingan.[1]

Pochta aloqasi avtomobil transportini ekspluatatsiya qilishning xususiyati bo'lib, aloqa organlari uchun qulay bo'lgan istalgan vaqtida uni jo'natish imkoniyati, shuningdek aloqa korxonalari bilan bevosita almashuv, bu pochtani qayta yuklashning qo'shimcha bosqichlarini chetlab o'tish imkonini beradi.

Shuningdek, harakatlanish tarkibining yuqori harakatchanligi, yuk ko'tarish bo'yicha avtomashinalar turlarining har xilligi, mashinalar kuzovlarining pochta tashishlari talablariga moslashishi, nisbatan yuqori tezlikni avtomobil transportining afzalliklariga kiritish mumkin.

Pochtani tashish aloqa korxonalari tomonidan tuziladigan harakatning tasdiqlangan marshrutlari va grafiklari bo'yicha amalga oshiriladi.

Pochtani tashish uchun avtomobil transportidan ratsional foydalanish ko'p hollarda avtomobil shahar to'g'ri tanlay olishga, ya'ni uning ekspluatatsiya qilish sharoitlariga muvofiqligiga bog'liq.

Avtomobillar turlarini tanlashda tashishlar xarakteri (shahar, viloyat ichi, tuman ichi va boshqa marshrutlar), yuklanish hajmi, yo'llarning ahvoli, tashilayotgan pochta jo'natmalarining saqlanishini ta'minlash hisobga olinishi kerak. Pochta yopiq va qulflanadigan kuzovli, boyliklar uchun qulflanadigan sandiqlar bilan jihozlangan avtomashinalarda yoki konteynerlarda, ot-ulov transportidan foydalanganda esa – pochtaning butunligini ta'minlaydigan aravalarda tashiladi. Agar pochta ochiq kuzovli avtomashinada yoki ochiq aravada tashilsa, u holda u zikh qilib taxlanadi, usti qalin mato bilan yopiladi va shunday bog'lab qo'yiladiki, uning yo'lda butligi hamda chang va namlikdan saqlanishi ta'minlanadi.

Temir yo'llar bo'ylab pochta tashishni tashkil qilish

Pochta vagonlari katta yuk ko'tarish qobiliyatiga ega, tashilayotgan boyliklar va pochta jo'natmalarining saqlanishini ta'minlaydilar; vagonlarda sayyor brigadalarning ishlashi uchun kerakli qulayliklar mavjud. Pochta vagonlari bilan pochta almashuvini pochta aloqasi ob'ektlari amalga oshiradilar. Pochta aloqasining hududiy tashkilotlari poyezdlar harakatining yangi jadvali kiritilishidan bir oydan kechiktirmasdan «O'zbekiston pochtasi» AJ bilan kelishuvga ko'ra bo'ysundirilgan pochta aloqasi ob'ektlari qaysi poyezdlar bilan pochta almashishlarini belgilaydilar va bu to'g'risida ixtiyorida pochta vagonlarining brigadalari bo'lgan Xalqaro pochtamtga xabar beradilar.[2]

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va Raqamli texnologiyalar vazirligining 03.10.2023 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3462- sonli "Temir yo'llarda pochtani tashish va pochta vagonlaridan foydalanish qoidalari tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida O'zbekiston Respublikasi hududida pochtani temir yo'llarda tashish hamda pochta vagonlaridan foydalanish, shuningdek ularga texnik xizmat ko'rsatishning yagona tartibini belgilangan.[3]

Xalqaro marshrutlarning pochta vagonlari bilan pochta almashish tartibi Umumjahon pochta ittifoqi hujjatlari, Xalqaro pochtani qabul qilish va jo'natish qoidalari, xalqaro pochta almashuvi punktlari va pochta qoidalari bilan tartibga solinadi.

Almashuv punkti mavjud bo'lgan punktlarda pochta vagonlari bilan bevosita pochta almashuvini shahar aloqa bo'limlari amalga oshirmaydilar, balki uni topshiradilar va pochta aloqasining almashuv punkti orqali oladilar.

Ishning katta hajmiga ega bo'lgan pochta aloqasining ob'ektlari pochta vagonlari bilan almashuv uchun kamida ikkita aloqa xodimini ajratadilar. Pochta-bagaj poezdlarining pochta vagonlari bilan pochtani almashish uchun poyezd turgan vaqtin ichida barcha vagonlar bilan almashuvni ta'minlash uchun yetarli bo'lgan miqdordagi aloqa xodimlari ajratiladi.

Yozma xat-xabarlar va gazetalar yo'lovchi vagonlarining kupelarida, tez yurar va yo'lovchi poyezdlarining yuk vagonlarida, shuningdek umum foydalilanligi avtobuslarda jo'natilishi mumkin.

Kichik ish hajmiga ega bo'lgan mahalliy liniyalarda pochta passajir vagonlarining kupelarida bir yoki ikkita aloqa xodimlari kuzatuvida tashilishi mumkin. Yuk bagaj bilan yozma xat-xabarlar va gazetalarni rejaga ko'ra jo'natilishini o'rnatish to'g'risida jo'natish punktlarining pochta aloqasi ob'ektlari olish punktlariga oldindan xabar berishlari kerak. Agar qandaydir sabablarga ko'ra yozma xat-xabarlar yuk bagaj bilan jo'natilmagan yoki rejadan tashqaridagi poyezd orqali jo'natilgan bo'lsa, jo'natish punktlarining pochta aloqasi ob'ektlari bu to'g'risida telegraf (telefon) orqali xat-xabarlar va gazetalarni reja bo'yicha jo'natish belgilangan tegishli tayinlangan punktga xabar berishlari kerak. Yuk bagaj bilan jo'natilgan pochta va ogohlantiruvchi telegramma olinmaganda, bu to'g'risida telegraf (telefon) orqali pochtani yuk bagaj bilan jo'natayotgan pochta aloqasi ob'ektiga xabar beriladi.

Pochta vagonlari, odatda, to'xtashlarning ko'p soniga ega bo'lgan passajir poezdlari tarkibiga kiritiladi.

Temir yo'llar bo'ylab pochta tashish masalalarini tartibga soladigan va «O'zbekiston pochtasi» AJ hamda «O'zbekiston temir yo'llari» AJ o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilaydigan asosiy hujjat bo'lib, pochtani tashish va temir yo'llarda pochta vagonlarini ekspluatatsiya qilish qoidalari hisoblanadi.

Qoidalalar bilan temir yo'llari bo'ylab pochtani pochta vagonlarida tashish kabi, «O'zbekiston temir yo'llari» AJ vagonlarida tashish tartibi, pochta vagonlarini ta'mirlashga qarash tartibi, temir yo'llari bo'ylab pochtani tashish uchun tariflar va hisob-kitoblar, pochta vagonlarini nazorat qilish, shuningdek ikki muassasa tashkilotlarining bu qoidalarning bajarilishi uchun javobgarligi belgilangan.[2]

Pochta vagonlarida pochtani tashish O'zbekiston Respublikasi temir yo'llarining barcha liniyalari bo'ylab amalga oshiriladi.

Pochta vagonlarida va boshqa vagonlarning maxsus moslashtirilgan joylarida tashiladigan pochta aloqa xodimlari tomonidan kuzatiladi. Oddiy bagaj vagonlarida pochta aloqa xodimlarining kuzatuvi bilan ham, kuzatuvisiz ham tashiladi.

Pochta almashuvi poyezdnинг jadval bo'yicha kerakli turish vaqtida amalga oshiriladi. Pochtaning tayyor emasligi tufayli poyezdlarning ushlanib qolishiga yo'l qo'yilmaydi.

Pochta va boshqa vagonlarda Umumjahon pochta ittifoqi hujjatlari va pochta aloqasi tizimida amal qiladigan normativ hujjatlarga muvofiq jo'natish uchun qabul qilingan pochta tashiladi.

Poyezdlar harakatining xavfsizligi maqsadlarida pochtaning umumiyligi og'irligi vagonning yuk ko'tara olish qobiliyatidan oshmasligi kerak. Temir yo'l vakili pochtaning og'irligini vagon tarozisida tekshirish va belgilangan normadan oshadigan ortiqcha pochtani vagondan tushirishni taklif etish huquqiga ega.

Pochta vagonlarini jo'natish belgilangan tartibda temir yo'l xodimlari tomonidan rasmiylashtiriladi.

Bagaj vagonlarda pochta, pochta xodimlari kuzatuvisiz qoplarga joylangan holda tashiladi.

Alovida hollarda, bir marotaba tartibda, pochtani tashish uchun yuk vagonlaridan foydalanish mumkin.

Havo transporti orqali pochta tashishni tashkil qilish

Pochta aloqasining assosiy vazifasi – pochta jo'natmalarining o'tishini maksimal darajada tezlashtirish bilan bog'liq holda pochtani, ayniqsa, gazetalar va yozma xat-xabarlarni tashish uchun aviatransportdan foydalanish masalasi istiqbolli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining, 26.11.2013 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2530-sonli "Havo kemalarida pochtani tashish qoidalari tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida pochta aloqasi operatorlari, provayderlari va aviakompaniyalar o'rtafiga o'zaro munosabatlarni tartibga soladi va ichki hamda xalqaro havo liniyalari orqali fuqaro havo kemalarida pochta tashish tartibini, pochta aloqasi operatorlari, provayderlari va aviakompaniyalarning huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi. [4]

To'lovidan qat'i nazar, yozma xat-xabarlarni tashish uchun yer usti transporti orqali jo'natishga nisbatan uning o'tishini bir kecha-kunduz va ortiq vaqtga tezlashtirish va belgilangan joylarga yetkazib berish sharti bilan havo transportidan foydalaniladi.

Aviakorxonalar va pochta aloqasi ob'ektlarining pochta tashishdagi huquqlari, majburiyatlarini va javobgarligi O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Pochta aloqasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining pochtasini havo liniyalari bo'ylab tashish qoidalari, pochta qoidalari va tuzilayotgan shartnomalar bilan belgilanadi.

«O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniya tomonidan pochtani tashish Xalqaro pochtamt (pochta aloqasining hududiy tashkilotlari) va Milliy aviakompaniya va uning tarkibiy bo'linmalari o'rtafiga uzoq muddatli shartnomalar, shuningdek amaldagi uzoq muddatli shartnomalarga qo'shimchalar ko'rinishida rasmiylashtiriladigan bir marotabali talabnomalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Pochtani tashish uchun shartnomalarni tuzishda har bir aeroport bo'yicha har chorakka bo'lib chiqqan holda bir yil uchun prognoz qilinadigan tashish hajmlarini hisobga olish zarur.

Respublika ichidagi liniyalarda pochtani yuklashning kelishilgan normalari belgilanishi mumkin. Aviakompaniya shartnomalarga muvofiq tashish uchun qabul qilingan pochtaning shartnomalarda ko'rsatib o'tilgan muddatlarda jo'natilishini kafolatlashi kerak.

Aeroport hududida joylashgan pochta aloqasi ob'ektidan pochtani olib kelish va uni havo kemalariga yuklash, shuningdek pochtani havo kemalaridan tushirish, pochta aloqasi ob'ektlariga tashish aeroport kuchlari va vositalari yordamida amalga oshiriladi. Pochta aloqasi ob'ekti mavjud bo'lмаган aeroportlarda pochta havo kemalariga aeroportlar kuchlari va vositalari bilan yuklanadi va tushiriladi, aeroportlardan pochta aloqasi ob'ektlarigacha (aeroportlardan tashqarida) shu pochta aloqasi ob'ektlarining kuchlari va vositalari yordamida tashiladi. Pochtani yetkazib berish va qabul qilish muddatlari Xalqaro pochtamt yoki pochta aloqasining hududiy tashkilotlari hamda aviakompaniya yoki aeroport o'rtaida tuziladigan shartnomalarda belgilanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda mavjud bo'lgan transport, temiryo'l va havo transporti orqali pochta aloqa xizmatlarini ko'rsatishda sifat va vaqt omili sezilarli darajada rivojlanmoqda. Albatta, bunda "O'zbekiston pochtasi" AJ va bir qator tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlar olib borilishi natijasida fuqarolarning pochta mahsulotlari o'zları istagan muddatda tez va havfsiz tarzda manzilga yetkazilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.08.2021 yildagi PQ-5225-sonli "Avtomobil transportida yuk tashuvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. Z.Otaqo'ziyeva "Pochta aloqasini tashkil etish" O'quv uslubiy majmua Toshkent-2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va Raqamlı texnologiyalar vazirligining 03.10.2023 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3462-sonli "Temir yo'llarda pochtani tashish va pochta vagonlaridan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining 26.11.2013 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2530-sonli "Havo kemalarida pochtani tashish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

GUT MICROBIOTA DYSBIOSIS IN RHEUMATIC DISEASES

Karimov M.Sh

*Professor (DSc), Department of propaedeutics of internal diseases No. 2, Tashkent Medical Academy,
E-mail: marifsh@mail.ru, Tashkent, Uzbekistan*

Tukhtaeva N.Kh

*Assistant professor (DSc), Department of propaedeutics of internal diseases No. 2, Tashkent Medical
Academy, E-mail: nigora321@mail.ru, Tashkent, Uzbekistan,*

Makhmudjonov A.S

*Junior student at Tashkent Medical Academy, Email: asliddinmah.34@icloud.com, Tashkent,
Uzbekistan. Tashkent Medical Academy*

INTRODUCTION

Rheumatic diseases, characterized by inflammation due to autoimmune processes, are widespread and often challenging to manage. Recent studies emphasize the role of gut microbiota dysbiosis in the pathogenesis of these conditions. Therefore, exploring the efficacy of gut microbiota modulation as a therapeutic strategy for rheumatic diseases is of significant interest.

Objective. To evaluate the impact of microbiota interventions, including probiotics, prebiotics, antibiotics, and fecal microbiota transplantation, on disease activity and symptom severity in patients with rheumatoid arthritis (RA), systemic lupus erythematosus (SLE), and ankylosing spondylitis (AS).

Materials and Methods. Scientific publications from internet resources such as PubMed and Cyberleninka were reviewed. They describe gut microbiota characteristics both at baseline and following macrobiotic interventions (probiotics, prebiotics, antibiotics, or fecal microbiota transplantation) tailored to individual microbiota profiles in patients with RA, SLE, and AS. Disease activity and symptom severity were assessed using validated indices at baseline and after 12 weeks of treatment.

Results. Literature data indicate a significant reduction in disease activity scores (DAS28) in RA patients compared to a control group (mean change -1.5 vs. -0.8, p<0.05) following microbiota-targeted treatments. Microbiota analysis showed increased Firmicutes and decreased Proteobacteria abundance in RA patients, indicating improved gut microbiota composition. For SLE patients, a significant reduction in the Systemic Lupus Erythematosus Disease Activity Index (SLEDAI) was observed after 12 weeks of treatment compared to controls (mean change -4.2 vs. -1.9, p<0.01). In the treatment group, microbiota analysis demonstrated higher diversity and increased beneficial taxa, such as Bacteroidetes and Faecalibacterium. In AS patients, the treatment group showed a notable decrease in the Bath Ankylosing Spondylitis Disease Activity Index (BASDAI) compared to the control group (mean change -2.0 vs. -1.0, p<0.01), along with a reduction in pathogenic taxa, including Klebsiella pneumoniae and Prevotella copri.

Conclusions. The findings underscore the potential of microbiotic treatments in rheumatology and the need for personalized treatment strategies based on individual microbiota profiles.

HAYOTIMIZDAGI VITAMINLAR

Buronova Mahliyo G'ulomovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahri 12-umumiy o'rta ta'lif maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Vitaminlar insonlar va hayvonlar uchun o'ta muhim bo'lgan murakkab tuzilishga ega organic birikmalardir. Ular asosan to'qimalardagi moddalar almashinushi va hujayralardagi biosintez reaksiyalari uchun zarur bo'lgan biokatalizator fermentlar tarkibiga kiradi. Demak, vitaminlar odam va hayvon organizmi uchun juda oz miqdorda kerak bo'ladi. Ammo organizmda vitaminlar yetishmasligi yoki ortib ketishi modda almashinuvining buzilishiga olib keladi.

Аннотация: Витамины – это органические соединения сложной структуры, имеющие большое значение для человека и животных. В основном они входят в состав ферментов – биокаталитических, необходимых для тканевого метаболизма и реакций биосинтеза в клетках. По этому витамины необходимы организму человека и животных в очень небольших количествах. Но недостаток или избыток витаминов в организме приводит к нарушению обмена веществ.

Abstract: Vitamins are organic compounds with a complex structure that are very important for humans and animals. They are mainly included in the composition of biocatalyst enzymes necessary for tissue metabolism and biosynthesis reactions in cells. Therefore, vitamins are needed in very small amounts for the human and animal body. But lack or excess of vitamins in the body leads to metabolic disorders.

Kalit so'zlar: Vitamin, retinol, tiamin, kobalamin, askorbin kislota, kalsiyferol, tokoferol, filoquinone.

KIRISH

Vitaminlar (lot. Vita – hayot va amin, hayot aminlari) – tirik organizmda juda muhim biokimyoviy va fiziologik funksiyalarni bajaradigan yuqori molekulali birikmalar. Vitaminlar lotin alifbosidagi A, B, C, D, E va boshqa bosh harflar orqali ifodalanadi. Vitaminlogiya – vitaminlar va ulaming tirik organizmlar hayotidagi ahamiyatini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Hozirgi kunda u alohida fan sifatida shakllangan umumiy biokimyoning bo'limlaridan biri bo'lib, muayyan fanning boshqa bo'limlarini o'rganishda ham muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa vitaminlar ko'p fermentlaming kofermenti yoki kofaktorlari sifatida xizmat qilib, biokimyoning yana bir boshqa bo'limi bo'lgan enzimlogiya fani bilan bevosita bogiiqdir. Vitaminlami chuqur o'rganish fermentativ jarayonlami to'liq tushunishga va u bilan bog'liq holda moddalar almashinuviga oid biokimyoviy jarayonlar majmuasi bo'yicha umumiy tasavvurlarga ega bo'lishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan 130 yil ilgari odam va hayvonlar organizmining me'yoriy chegarada hayot kechirishi uchun organizniga karbonsuvar, yog'lar, oqsillar, mineral moddalar va suv kirib kelsa kifoya degan fikr hukm surar edi. Lekin biroz keyinroq, bu moddalardan tashqari juda kam miqdorda bo'lsa-da, organizm uchun zarur bo'lgan va fanga noma'lum bo'lgan boshqa moddalar ham kerakligi aniqlandi. Shu bilan birgalikda qadim zamonlardan boshlab oziqa

tarkibida ayrim komponentlaming yetishmasligi tufayli har xil kasalliklaming kelib chiqishi ham ma'lum edi.

Ma'lumki, qadimgi Xitoyda guruch kepagi bilan davolanib ketadigan «beriberi» kasalligining (beri-singal tilida nimjonlik) uchrashi to'g'risida ma'lumotlar mavjud edi. Bu kasallikda mushaklar atrofiyasi, yurak-tomir tizimining izdan chiqishi kuzatilar edi. Qadimgi xitoy yozuvlarida «Shabko'rlik» kasali to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bu kasallikni jigar iste'mol qilish yo'li bilan davolash mumkinligi ham ma'lum edi. Singa kasalligining belgilari to'g'risidagi ma'lumotlar dastlab eramizdan oldin yashab o'tgan buyuk mutafakkir, tabib, faylasuf Gippokrat qalamiga mansubdir. Uning asarlarida bu kasallikka chalingan odamlarda nimjonlik, mushak-bo'g'imlar og'rig'i, milklarning qonashi, tishlarning tushishi kabilar yuz berishi to'g'risida dastlabki ma'lumotlar keltirilgan.

USULLAR

O'rta asrlarning buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino tibbiyot fanida burulish yasagan siymo hisoblanib, o'z asarlarida har xil kasalliklami davolash yo'l-yo'riqlarini batafsil keltirib o'tgan. Uning asarlarida to'la qimmatli ovqatlanish ko'p kasalliklaming oldini olish garovi ekanligi qayd qilingan bo'lib, vitaminlarning ochilishidan to'qqiz asr oldin ularning ahamiyati to'g'risidagi fikrlar bashorat qilingan.

Singani davolashga qaratilgan izlanishlar olib borish buyuk geografik kashfiyotlar davriga, ya'ni, XVI-XVII asrlarga to'g'ri keladi. 1601-yil J. Lancaster ingliz harbiy dengiz floti askarlarining oziqa ratsioniga limonni kiritishni taklif etdi. Shuning uchun bu askarlami keyinchalik «Limonxo'rlar» deb nomlay boshladilar. Biroz keyinroq ingliz shifokori J. Lind o'zining «Singa haqida qissa» asarida (1757-y). «Organizmni singaga chalinishdan saqlaydigan omil meva va sabzavotlardir» deb e'tirof etdi.

XVIII asrda raxitni davolash uchun shifokorlar triska balig'i yog'idan foydalanishgan. Shu davrda Ispaniya qiroli Filipp V ning shifokori G.Kazal (1735-y.) pellagra (italyancha-pella agra - ko'chadigan, po'st tashlaydigan teri) to'g'risida ma'lumot berdi. Bu kasallikda oldin teri shikastlanadi, so'ng til, oshkozon-ichak yodining silliq pardasi yallig'lanadi va yana keyinroq asab-ruhiy shikastlanish paydo bo'ladi.

1816 yilda fransuz fiziologi F. Majandi birinchilar qatori fiziologiyada eksperimental tafsifli ishlarni taklif qildi, hamda eksperimental hayvonlarni sun'iy ravishda tuzilgan ratsion bilan oziqlantirdi. Bu olimning eksperimental tadqiqot olib borish uslublaridan foydalanishi asosida hayvonlarning oqsil, karbonsuv, yog'lardan tashkil topgan ratsion qabul qilganida, ular ayrim kasalliklarga uchrashi mumkin ekanligi isbotlandi. XIX asrda singa (yoki skorbut) kasalligi juda ham keng tarqalgan bo'lib, bu kasallikdan «yostig'i qurigan» kishilar 70-80% gacha yetib bordi. Taxminan shu davrda Janubiy-Sharqiy Osiyo va Yaponiyada «beriberi» nomi bilan yuritiladigan kasallik ham keng tarqalgan edi. Yaponiya aholisining deyarli 30% shu kasallikka chalingan edi.

1882-yilda Takaki degan yapon hakimi ekipajida taxminan 300 nafar dengizchisi bo'lgan ikkita kemadagi odamlarning holatini kuzatdi. Kemalar 9 oy davomida dengizda suzib yurishgan bo'lib, birinchi kema dengizchilari shu paytda dengizchilar uchun odatdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishgan bo'lsa, ikkinchi kema dengizchilari ovqatlari tarkibiga sof sabzavot mahsulotlari ham kiritilgan edi. Bunda birinchi kema dengizchilaridan 170 nafari beri-beriga chalingan bo'lib, 25 nafari vafot etdi. Ikkinchi

kemada esa kasallikning faqat yengil shakli 14 nafar dengizchida kuzatildi va bu kasallardan biron kishi vafot etmadi. Bu kuzatuv natijasida Takaki soʻf sabzavotlar tarkibida organizmning hayotiy faoliyati uchun zarur boʻlgan qandaydir moddalar boʼladi degan xulosaga keldi. Vitaminlar toʻgʼrisidagi taʼlimotning rivojlanishida N.I. Luninning (1880-y.) xizmati katta. U kishi hayvon organizmi oziqa tarkibida oqsil, karbonsuv, yogʼ, mineral moddalar va suvdan tashqari hozirgacha maʼlum boʼlmagan, lekin ularning oʼrnini bosa olmaydigan qandaydir moddalar boʼlishini talab qilinishini isbotladi.

Bu ilmiy xulosa F.Xopkins va K.Funk (1912-y.)lar tomonidan keyinchalik yanada toʼliqroq isbotlandi. Ayniqsa, shu yili K.Funk guruch kepagi ekstraktidan «beri-beri»ning oldini oladigan kristall moddani ajratib oldi. Bu modda tarkibida amin guruhi boʼlganligi uchun uni «hayot amini» (Vita-hayot) deb nom berdi. Keyin topilgan vitaminlar tarkibida amin guruhi boʼlmasligi ham mumkin, lekin fanda «vitaminlar» atamasi shundan beri qoʼllanib kelinmoqda.

Osiyo, Afrika va Janubiy Amerikaning ayrim hududlarida aholi koʼpincha oʼsimlik mahsulotlaridan iborat boʼlgan va hamisha bir xil oziq-ovqatlarni isteʼmol qiladilar. Shu sababli bu yerlarda vitaminlarning tanqisligi bilan bogʼliq boʼlgan kasalliklar uchraydi. Ilmiy adabiyotlarda vitaminlaming organizmga ortiqcha miqdorda kirishi, yaʼni, gipervitaminoz tufayli kelib chiqadigan kasalliklarning borligi toʼgʼrisida ham maʼlumotlar keltiriladi.

Gipovitaminozga xos kasalliklarning kelib chiqishi organizmda fermentlar faoliyatining pasayishi tufayli yuz beradi, chunki koʼp vitaminlar fermentlarning kofaktorlari yoki kofermentlari funksiyasini bajaradi. Odam va hayvonlarda uchraydigan gipo va avitaminozlarning kelib chiqishi ikki xil omillarga bogʼliq boʼladi. Bu omillar ekzogen va endogen omillar deyiladi. Endogen omillar deganda, oziqa tarkibida muayyan vitamining yetishmasligi yoki umuman boʼlmasligi tufayli yuzaga chiqadigan gipo va avitominoz kasalliklari haqida fikr yuritiladi. Endogen omillar bilan bogʼliq gipo va avitaminoz kasalliklari oʼziga xos sabablarga bogʼliq holda kelib chiqadi. Ular jumlasiga:

1. Baʼzi fiziologik holatlarda vitaminlarga boʼlgan ehtiyojning oshishi. Bunga homiladorlik, laktatsiya, tireotoksikoz va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin;
2. Ichakda mikrofloraning rivojlanishi, yaʼni infektion jarayonlar tufayli vitaminlarning parchalanib ketishi;
3. Ichaklar sekretor va motor funksiyasining izdan chiqishi tufayli vitaminlar soʼrilishining susayishi;
4. Jigar, oshqozon osti bezi kasalliklari tufayli oʼt yoʼlining toʼsib qoʼyilishi natijasida yogʼlar soʼrilishi va bu orqali yogʼda emvchi vitaminlar soʼrilishining izdan chiqishi.

Shu mulohazalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tibbiy amaliyot uchun gipo va avitaminozlarning ekzogen va endogen tavsifga ega ekanligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ekzogen tavsifli gipo va avitaminozni davolash va oldini olish uchun ratsionni tegishli vitaminlar bilan boyitish lozim boʼladi.

TADQIQOT VA NATIJALAR.

Vitaminlar xilma-xil kimyoviy tuzilishga ega boʼlgan hamda asosan oʼsimliklar, qisman mikroorganizmlar tomonidan sintezlanadigan past molekulali organik moddalar hisoblanadi. Baʼzi hollarda vitaminlar hayvonlar toʼqimalarida ham provitaminlardan kimyoviy almashinuv reaksiyalari natijasida hosil boʼlishi mumkin. Provitaminlarga, misol

sifatida o'simliklarning organlarida uchrovchi bo'yoq mahsulotlar - karotin (a, p, y) larni keltirish mumkin. Ulardan hayvon organizmi to'qimalarida vitamin A, (retinol) hosil bo'ladi. Vitaminlar uchun ularning molekulyar tuzilmasidagi maxsuslik xususiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha vitaminlarning molekulasi tuzilmasida qisman o'zgarish paydo bo'lishi (qo'sh bog'ning siljishi, bir xil radikalning boshqa radikalga almashinishi h.k. lar) biologic faollikning o'zgarishini keltirib chiqaradi.

Vitaminlarga xos bo'lgan bu xususiyat tabiatda ularning gomologik qatorini tashkil qiluvchi va ta'siri bo'yicha o'zaro o'xshash, lekin to'qima metabolizmiga har xil ta'sir etishi bilan farqlanuvchi gomovitaminlarning mavjudligi bilan bog'liq.

Kimyoviy jihatdan vitaminlar organik moddalar bo'lishi bilan birligida, ular xilma-xil tuzilishga ega bo'lgan moddalar hisoblanadi. Vitaminlar atsiklilc, siklik (halqali) tuzilishli, nukleotidli, spirtli, kislotali, efirli tuzilishli bo'lsa. vitamin B₁₂ o'ta murakkab tuzilishli bo'lib, uning tarkibiga atsiklilc, siklik nukleotidli, mikroelement kobalt ham kiradi.

Vitaminlarni aniqlash fizik-kimyoviy va biologik uslublarda amalga oshiriladi. Vitaminlarning qator kimyoviy moddalar bilan o'zaro ta'sirlanishi tufayli xilma-xil rangli reaksiyalar yuz beradi. Bunda rang jadalligi vitaminlarning konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun vitaminlarni fotoelektro-kolometrik (FEK) uslubda aniqlash mumkin. Masalan, B vitamini diazoreaktivdan foydalangan holda aniqlanadi. Ba'zi vitaminlar optik nurlami spektrning ma'lum bir chegarasida yutish qobiliyatiga ega. Shundan foydalanib biomateriallar (qon zardobi, siydik, to'qima ekstraktlari) da spektrofotometrik yo'l bilan miqdoriy tahlil o'tkazish mumkin.

Masalan, vitamin A spekrning 328 -330 nmda maxsus yutish qobiliyatini namoyon qiladi. Bundan foydalanib, spektrofotometrik uslubda miqdoriy tahlil o'tkaziladi. B₁ va B₂ vitaminlari flyuorometrik uslubda aniqlanadi. C vitaminini aniqlashni esa, titrlash yo'li bilan, ya'ni 2,6-dixlorfenolindofenoldan foydalangan holda miqdoriy tahlil asosida o'tkaziladi.

Hozirgi kunda odam va hayvonlarning vitaminlarga bo'lgan ehtiyoji juda ortib borayotgani inobatga olinsa, bu ehtiyojni faqat tabiiy manbalar evaziga qondirish mumkin emas. Bu narsa chorvachilikning industrializatsiyasi, odamlarning oziqlanishi tobora zamonaviy fan yutuqlariga tayangan holdagi samarali oziqlanish tuzilmasiga borishi, shuningdek odamning ko'p hollarda ekstremal sharoitlar (kosmos, qutblar) da yashashi uchun zarurat tug'ilishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari vitaminlar va ularning hosilalari, shuningdek koferment shakllari va xillari dorivor moddalar sifatida ko'p kasalliklarni davolashda tobora ko'p ishlatilmoqda. Butun dunyoda hozirgi kunda kimyoviy uslubda sintezlash qatori vitaminlarni mikrobiologik usulda sintezlash alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Vitaminlar sinfiga mansub bo'lgan xilma-xil past molekulali organik moddalar har xil kimyoviy tuzilishga ega bo'lib, tabiat haqidagi bilimlarimizning tobora teranlashib borgani sari ularga oid bilim, malaka va ko'nkmalar ham o'zgarib, chuqurlashib bormoqda.

NATIJALAR MUHOKAMASI

Mikroorganizmlarning vitaminlarni biosintezlash qobiliyatiga ega ekanligi ma'lum bo'lgandan keyin bundan foydalanishga oid tadqiqotlar o'tgan asrning 30-40-yillaridan

boshlangan edi. Bu davrda M.N. Meysel va Y.N. Odinova tomonidan xamirturushdan foydalanib B₁ Vitaminga boy aralashma olish uslubi ishlab chiqildi.

Birozdan so'ng Rossiyada xamir-turushni nurlantirib, D₂ vitaminga o'tkazish va C vitamin ni mikrobiologik uslubda ishlab chiqish yo'lga qo'yildi. Keyinchalik mikroorganizmlar tomonidan vitaminlarni o'ta ko'p miqdorda sintezlay olish imkoniyati borligi aniqlandi.

Gilyerman degan olim Eremothecium ashbyii zamburug'i juda ko'p miqdorda riboflavinni yig'ishi to'g'risidagi xususiyatni XX asrning 30-yillarida kuzatdi. Uning ishlari mikroorganizmlar vitaminlarni sintezlovchi «fabrikaga» aylanishi mumkinligini isbotladi. Keyinchalik riboflavinni xamirturush va bakteriyalar tomonidan sintezlanishi va yana biroz keyinroq esa, ular B₁₂ vitaminanni ham sintezlashi mumkinligi aniqlandi.

Vitaminlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bilan bir qatorda vitamin tarkibli kofermentlami mikrobiologik uslub yordamida sintezlash ishlari ham keng quloch yoydi. Vitaminogenez mexanizmlarini tadqiq qilish asosida riboflavinni sintezlovchi produsent-zamburug'idan mutantlar olindi, ular ham riboflavinni o'ta ko'p miqdorda sintezlanishini amalga oshirish imkonini beradi. Xuddi shu xilda ko'p miqdorda B₁ B₆ vitamin, biotinlarni sintezlovchi mutantlar ham olingan. Bu ishlar hozirgi kunda jadal sur'atlarda davom ettirilmoqda va boshqa vitaminlarni ham shu uslubda ajratib olish uslublari ishlab chiqilmoqda.

Shu yo'sinda askorbin kislota, nikotin amid, biotin, qator kofermentlar, xususan, NAD, NADF, ATF, FAD, FMN, koenzim va hokazolarni olish uslublari ishlab chiqilgan.

Vitaminologiya rivojlanishining yangi istiqbollari biotexnologik uslublardan foydalanib, mikrobiologik sanoat ishlab chiqarishini uzluksiz va boshqariladigan tarzda tashkil qilishga qaratilgan. Ayniqsa vitaminlarni sintezlashda manba sifatida noan'anaviy mahsulotlar (karbonsuvlar, past molekulali spirtlar, aldegidlar, kislotalar) dan foydalanib bu ishlarni keng tarzda amalga oshirishni yo'lga qo'yish e'tiborga loyiqidir. Oziqa bo'limgan manba va mahsulotlardan mikrobiologik uslublar vositasida vitaminlarni hosil qilish, ajratib olish istiqbollari juda keng bo'lib, uning bir necha yo'nalishlari mavjud. ular jumlasiga quyidagilarni kiritса bo'ladi:

1. Vitaminlar va kofermentlarni mikroorganizmlar-produsentlardan foydalanib ajratib olish. Hozirgi davrda masalaga shu yo'sinda yondashuv asosida B₂, B₁₂ vitamin va karotinoidlar ajratib olinadi. Bu yo'nalish istiqbolli bo'lib, o'ta ko'p miqdorda vitaminlami sintezlab, ajratib olishni yo'lga qo'yadigan mikroorganizmlarning mutantlarini yaratishni nazarda tutadi.

2. Sanoat ishlab chiqarishi miqyosida individual vitaminlar va kofemientlarni mikroorganizmlar biomassasidan ajratib olishni yo'lga qo'yish. Bu ishlar ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tanlab olib tashkil qilinsa, hatto vitaminlar va kofermentlarning kompleksi tarzida ham hosil bo'lishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

3. Mikroorganizmlardan vitaminlarning sintezlanishini alohida bosqichlarida foydalanish imkoniyatlari ham mavjud. Bu xilda ish yuritib yangidan yangi manbalardan foydalanib, ularni har xil mikroorganizmlar faoliyati orqali bosqichma-bosqich vitaminga aylantirish ham mumkin bo'ladi. Bu mikrobiologik uslublar qatori vitaminlarni kimyoviy sintez yo'li bilan ajratib olish muhim ahamiyatga ega. Kimyogarlar bu sohada ham katta

yutuqlarni qo'lga kiritmoq-dalar. Biotexnologiyaning yutuqlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari juda kengayib bormoqda.

Vitaminlarni sanoat miqyosida ko'p miqdorda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mamlakatimizda chorvachilik va tibbiyot uchun zarur bo'lgan miqdorda bu moddalarni sintezlash imkoniyatlarini yaratadi.

O'z navbatida aytish o'rinniki, shu yo'sinda ish yuritish oziq-ovqat hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kuchaytirish, aholi salomatligini tiklash, umrini uzaytirish va turmush farovonligini oshirishda o'z samarasini beradi.

XULOSA

Darhaqiqat, vitaminlar past molekulali organik moddalar bo'lib, xilma-xil kimyoviy tuzilishga ega hamda ularning ko'plari hayvon va odam organizmida sintezlanmasligi tufayli ovqatlanish jarayonida ovqat mahsulotlari tarkibida organizmga kirishi zarur bo'lgan birikmalar jumlasidandir.

Aytish joyizki, vitaminlar ovqat mahsulotlari tarkibida juda kam miqdorda uchrashiga qaramay, organizmda kechadigan barcha biokimyoviy jarayonlarda qatnashib, fiziologik funksiyalarni me'yor chegarasida yuz berishini ta'minlashda ishtirok etadi.

Shuningdek, vitaminlar o'simlik, hayvon va mikroorganizmlarning o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan birikmalar hisoblanadi.

Vitaminlar boshqa barcha organik ozuqa moddalaridan ikki xil belgisi bilan farqlanadi:

- ular organ va to'qimalar tarkibiga qurilish materiali sifatida kirmaydi;
- organizmda kechadigan jarayonlarda energiya manbayi sifatida foydalanilmaydi.

Vitaminlarning ovqat tarkibida umuman bo'lmasligi yoki taqchilligi qator kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Xususan, singa, raxit, beri-beri, pellagra x.k.lar u yoki bu vitaminlarning ovqat tarkibida umuman bo'lmasligi yoki yetishmasligi tufayli kelib chiqadi. Ovqat tarkibida vitaminning umuman bo'lmasligi yuqorida keltirilganidek kam miqdorda bo'lishi avitaminoz, gipovitaminoz bilan bog'liq kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda avitaminoz, gipovitaminozga xos kasalliklarning kelib chiqishi ekzogen va endogen omillarga bog'liq ekanligi to'liq isbotlangan.

Ilmiy adabiyotlarda vitaminlarning organizmga oshiqcha miqdorda kirishi, ya'ni gipervitaminoz bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar ham uchraydi. Tibbiy amaliyotda, shuningdek, veterenariya amaliyotida vitamin bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bu ishlarni amalga oshirish qon va boshqa biologik suyuqliklar, hamda to'qimalarda vitaminlar miqdorini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Buning uchun vitaminologiyada spektrofotometrik, kolori-metrik, fluorometrik, titrlash va biologik uslublardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Parallel qayta ishlash texnologiyalarini sun'iy intellekt va kvant hisoblashda kelajakda juda katta o'rinni tutadi. Sun'iy intellektda mashinaviy o'rganish va chuqur o'rganish modellari, kvant hisoblashda esa kvant bitlari va parallelizm imkoniyatlari yangi davrni boshlaydi. Bu texnologiyalar kelajakda nafaqat ilmiy va sanoat sohalarini, balki kundalik hayotni ham o'zgarishlarga olib keladi.

Parallel qayta ishlash texnologiyalarining istiqbollari juda keng va rivojlanayotgan sohalarda muhim o'rinni tutadi. Bu texnologiyalar, sun'iy intellekt (SI), kvant hisoblash, katta ma'lumotlar, va ilmiy hisoblash kabi sohalarda katta imkoniyatlar yaratadi.

Kelajakda parallel qayta ishlash texnologiyalari yanada kuchayadi va yangi avlod tizimlarining asosiy qismiga aylanishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish sohalarida, parallelizm yordamida kattaroq ma'lumotlar bazalarini tezroq tahlil qilish va murakkab modellarni samarali o'rgatish imkoniyati yaratiladi. Kvant hisoblash esa parallelizmni yangi darajaga olib chiqib, an'anaviy kompyuterlarga qaraganda ko'proq hisoblash imkoniyatlari taqdim etadi, bu esa ilmiy va texnologik sohalarda inqilobiy o'zgarishlarga olib keladi.

Shuningdek, parallel qayta ishlash texnologiyalarining yanada rivojlanishi bilan, energiya samaradorligi va ma'lumotlar uzatish tezligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa texnologiyalarini yanada kengroq sohalarda, shu jumladan, kichik va o'rta biznesda ham qo'llash imkoniyatlarini yaratadi. Tizimlarning ko'p yadroli ishlash imkoniyatlari, GPU va TPU kabi yangi hisoblash qurilmalaridan foydalanish, va tarqatilgan hisoblash tizimlarining samaradorligi parallel qayta ishlashning keyingi bosqichida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, parallel qayta ishlash texnologiyalarining istiqbollari, innovatsion yondashuvlar va yangi metodlarni o'z ichiga olgan holda, yuqori samaradorlikka erishish va katta ma'lumotlar bilan ishlashning yangi imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu esa kelajakda ilmiy, sanoat va kundalik hayotimizda o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. William Stallings. Computer organization and architecture: designing for performance. Eleventh edition. Hoboken: Pearson Education, 2019.
2. David Patterson John Hennessy. Computer Organization and Design. 5th Edition. 2017.

3. Соломенчук В.Г., Соломенчук П.В. Железо персональных компьютеров 2010. СПб.: БХВ Петербург, 2010.-448 с.

Internet saytlari:

1. <https://www.udemy.com/course/computer-architecture-an-introduction/>
2. <https://www.coursera.org/learn/comparch>

ACTIVITIES FOR DEVELOPING AUTONOMOUS AND INDEPENDENT LEARNING

Axmadova Xonzoda Sotiboldi qizi

N.K.Raximova

Scientific advisor: Navoi State Pedagogical Institute xonzodaaxmadova@gmail.com

Abstract: Developing autonomous and independent learning skills is essential in the 21st century, where self-directed learning is crucial for personal and professional growth. This paper explores activities that foster learner autonomy, including goal-setting, reflective practices, and collaborative learning. Using a qualitative literature review approach, this study identifies effective strategies for integrating these activities into educational contexts. Results indicate that autonomy-enhancing activities significantly improve learners' self-regulation, motivation, and critical thinking skills. The findings provide actionable recommendations for educators aiming to cultivate independent learning habits in their students.

Key words: Autonomous learning, critical thinking, collaboration, SMART goals, metacognitive and reflective practices.

INTRODUCTION

Autonomous learning is defined as the ability of learners to take charge of their own educational processes, including setting goals, selecting resources, and evaluating outcomes (Benson, 2001). In an era characterized by rapid technological advancements and shifting educational paradigms, fostering independence in learning is more critical than ever. Autonomous learning encourages lifelong learning habits, adaptability, and critical thinking—skills highly valued in both academic and professional contexts (Holec, 1981). However, despite its importance, many learners struggle with self-regulation, time management, and intrinsic motivation. Teachers often face challenges in designing classroom activities that encourage independence without overwhelming students. This paper investigates specific activities that educators can employ to promote autonomous learning and evaluates their effectiveness.

Methods

Study Design This study utilized a qualitative literature review methodology to identify and analyze activities that enhance learner autonomy. Research articles, books, and case studies were selected based on relevance and quality. Selection of criteria sources included in this review focused on:

1. Practical activities fostering independent learning.
2. Evidence-based outcomes.
3. Applicability across various educational levels.

Activity Description. The study categorized activities into three types:

1. Goal-Setting Activities: Tasks that help learners set specific, measurable, achievable, relevant, and time-bound (SMART) goals.
2. Reflective Practices: Journaling, self-assessment, and peer feedback sessions.

3. Collaborative Learning: Group projects, peer teaching, and discussions to encourage shared responsibility and self-direction. Data Collection in the effectiveness of activities was assessed through outcomes reported in the literature, such as improved motivation, self-regulation, and academic performance.

Results

The analysis yielded the following insights:

1. Goal-Setting Activities Goal-setting was found to be a foundational step in fostering autonomy. Activities such as creating SMART goals enabled learners to focus their efforts and track progress effectively (Zimmerman, 2002). For example, a study by Little (1991) demonstrated that students who regularly set and reviewed goals showed higher levels of engagement and persistence.

2. Reflective Practices Reflective activities encouraged learners to critically evaluate their learning processes and outcomes. Journaling was particularly effective, as it provided a space for students to articulate challenges and develop strategies for overcoming them (Benson, 2001). Self-assessment tools, such as rubrics, also helped students take ownership of their academic achievements.

3. Collaborative Learning Collaborative activities promoted both autonomy and interdependence. Peer teaching was identified as a powerful tool for reinforcing knowledge and fostering accountability. Group projects allowed learners to distribute responsibilities while maintaining control over their contributions (Holec, 1981).

Discussion

The findings highlight that autonomy-enhancing activities significantly impact learners' ability to self-regulate, reflect, and collaborate. Goal-setting, for instance, provides a clear structure that empowers students to take initiative, aligning with Zimmerman's (2002) model of self-regulated learning.

Reflective practices, on the other hand, build metacognitive awareness, enabling students to identify strengths and areas for improvement.

Collaborative learning not only fosters interpersonal skills but also creates a supportive environment where learners can practice autonomy in a shared context.

These activities align with existing literature on the importance of fostering autonomy in diverse learning environments (Little, 1991).

However, implementing these strategies requires careful scaffolding to avoid overwhelming students, particularly those new to independent learning. This study relied on secondary sources, which may not capture real-time classroom dynamics. Further research involving experimental studies and diverse educational settings is recommended.

Conclusion

Developing autonomous and independent learning requires intentional, well-designed activities that engage learners in setting goals, reflecting on progress, and collaborating effectively. Educators can leverage these strategies to create supportive environments that foster lifelong learning habits.

Future studies should explore technology-assisted tools and their role in enhancing autonomy.

REFERENCES:

1. Benson, P. (2001). *Teaching and researching autonomy in language learning*. Routledge.
2. Holec, H. (1981). Autonomy and foreign language learning. Council of Europe.
3. Little, D. (1991). Learner autonomy: Definitions, issues, and problems. Authentic.
4. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. *Theory Into Practice*, 41(2), 64–70.

MENEJMENT STRATEGIYASI

Ro'zimov Bobomurod Farhod o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada strategiya va strategik menejment yoritiladi. Strategik rejani tanlash va uni amalga oshirish batafsil tahlil qilingan. Strategik rejani amalga oshirishni boshqarish, uni bajarilishini nazorat qilish va baholash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalitso'zlar: Strategiya, qoida, taktika, siyosat, protsedura, byudjetlar, strategik menejment, strategik rejalashtirish, miqdoriy me'zonlar, sifatiy me'zonlar

Strategiya grekcha («strategos») so'z bo'lib, «general san'ati» degan ma'noni bildiradi. Bu atamaning harbiy sohadan kirib kelganiga taajjublanmaslik kerak. Zero, puxta o'ylangan strategiyani Aleksandr Makedonskiy va Amir Temurlar ham harbiy yurishlarda qo'llagan. O'zbek tilining izohli lug'atida ham strategiya atamasi: - «yirik harbiy operatsiyalar va umuman urush olib borish san'ati»; - «ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san'ati va ilmi» ma'nosida talqin etilgan. Harbiy sohada hozir ham bu atama yuqori qo'mondonlik tomonidan harbiy jarayon (operatsiya) larni rejalashtirish san'ati ma'nosida ishlatiladi. Istiqbolni aniq bashorat, tasavvur qilish uchun strategiya zarurdir. Strategiya — bu:

- istiqbolni tadqiq qilish, turli stenariyalarni tahlil qilish san'ati;
- istiqbolda raqobat kurashida afzallik beruvchi g'oya;

korxonaning umumfaoliyati (fond, ishlab chiqarish quvvati, xarajat, foyda miqdorini va hokazo) ni nazorat qiluvchi keng qamrovli tizimdir. Strategiya — reja, boshqaruv yoki istalgan faoliyat turida strategik maqsadlarga erishish bo'yicha boshqaruv subyektining maxsus dasturi hisoblanadi.

Strategiya — bu moljallangan aniq maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan kelajakka qaratilgan tadbirlar tizimi. Strategiyani tanlash va amalga oshirish mohiyati shundaki, mavjud bolgan ko'p qirrali rivojlanish yo'naliшlaridan biri tanlanib, ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini shunga yo'naltirishdir. Strategiya o'z harakat doirasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1.Puxta o'ylangan strategiya, 2.Mo'ljallangan strategiya, 3.Amalga oshmagan strategiya, 4.Amalga oshirilgan strategiya, 5.Paydo bo'ladigan strategiya.

Bundan tashqari, korxonada quyidagi strategiyalar ham bo'lishi mumkin:

- maxsus strategiya;
- funksional strategiya;
- mujassamlashtirilgan strategiya
- diversifikatsiyalashgan strategiya

Maxsus strategiya bu sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli holatlarni, masalan, bankrotlik holatini bartaraf etish maqsadida uzoq muddatga tuziladigan strategiyadir. Funksional strategiya korxonaning bo'lim va xizmatlari oldidagi vazifalarni amalga oshirish yo'llarini ifodalaydi. Bu ishchi strategiyasidir. Mujassamlashtirilgan strategiya bu korxonaning yaxlit faoliyatini o'zida jamlagan mo'ljadidir. Diversifikatsiyalashgan strategiya korxona (firma) ning faoliyat sohasi va ishlab chiqaradigan mahsulotlar turlarini

ko'paytirish kabi vazifalarini amalga oshirish yo'llarini ifodalaydi. Strategik menejment—korxona (firma) ning istiqbol maqsadi va imkoniyatini xodimlar manfaati bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli boshqaruv usulidir. Boshqacha aytganda, strategik boshqaruv — bu strategik maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan boshqaruv faoliyatidir.

Strategik menejment korxona ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, mehnat jarayonini tashkil etish, korxona istiqbolini belgilab, unga yetib borish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, korxonaning iqtisodiy salohiyatini boshqarish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Strategik menejment boshqarishning ustuvor qonuniyatlari va jihatlari bilan bir qatorda korxona faoliyatining yuqori samaradorligini ta'minlash, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish va uning bozordagi barqarorligini qat'iy qarorlarni qabul qilishni o'rgatadi. Strategik menejment usulining paydo bo'lishi va amaliyotda qo'llanish zaruriyati obyektiv sabablar bilan bog'liq bo'lib, bunda asosan korxonaga ta'sir qiluvchi tashqi muhitning o'zgaruvchanligi muhim rol o'ynaydi. Bu usulning rivojlanishi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi.

Bajaruvchanlikni nazorat qilish asosida boshqarish usuli.

Bu bosqichda korxonada o'zgarishlarga nisbatan javob ta'sir voqeasi sodir bo'lgandan so'ng paydo bo'ladi. Bu reaktiv moslashuv bo'lib, zamon bilan birga qadam tashlamaydigan rahbarlarga xos. Ammo tez sur'atlar bilan sodir bo'ladigan o'zgarishlar sharoitida bunday usul hech ham qo'l kelmaydi.

Ekstrapolyatsiya qilish asosida boshqarish usuli. Bunda o'zgarish sur'ati tezlashadi. Biroq istiqbolni faqat oldingi davr o'zgarishlari an'anasisiga asoslanib ekstrapolyatsiya qilish yo'li bilan belgilash mumkin (uzoq muddatli rejalashtirish).

O'zgarishlarni oldindan prognoz qilish asosida boshqarishusuli. Bu usul o'zgarishlar sur'ati tezlashib, kutilmagan hodisa sodir bo'lishini nazarda tutib ishlab chiqilgan strategiyani amalga oshirish (strategik rejalashtirish).

Shoshilinch ixcham qarorlarni qabul qilish asosida boshqarish usuli. Bunday usul bozor talablariga javoban korxona faoliyatini tezkorlik bilan o'zgartirish lozim bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turli-tuman tezkor vazifalar paydo bo'ladi. Ular faqat uzoqni ko'zlagan holda rejalashtiriladi va boshqarilish amalga oshiriladi (strategik boshqaruv).

«Strategik boshqarish» atamasi 1960-1970-yillarda kundalik hayotga kirib keldi. Bunda yuqori pog'onada amalga oshiriladigan boshqarish ishlab chiqarish darajasidagi boshqarishdan farqlanadi. Bunday farqni o'tkazish zarurati birinchi navbatda biznesni amalga oshirishdagi o'zgarishlardan kelib chiqadi. Joriy boshqarishdan strategik boshqarishga o'tishning mohiyatini ifodalovchi bosh g'oya shundaki, rahbariyatning diqqat markazi doimo atrofidagi o'zgarishlarga qaratilgan bo'lishi va bu o'zgarishlarni o'z vaqtida sezishi hamda ularga o'z vaqtida javob berishi zarur.

Strategiyaga zarurat jamiyat tomonidan talablar, masalan, keskin ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar korxonani o'z yo'nalishini keskin o'zgartirishga majbur etganda paydo bo'ldi. Innovatsiyalar strategiyasini ishlab chiqish korxona umumiy maqsadini ifodalashdan boshlanadi.

Umumiy maqsadni ifodalashdan keyin aniq maqsadlar aniqlanadi. Aniq maqsadlarning erkinligini strategiya amalga oshirilishi vaqtida yuzaga keluvchi iqtisodiy vaziyatda ularning realligiga bog'liq. Ularning realligini iqtisodiy vazifani oldindan ko'ra olish va tashqi muhit o'zgarishlari asosida ta'minlash mumkin.

Bunda siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, ijtimoiy va ekologik omillar tahlil qilinadi. Oldindan ayta olishning asosiy maqsadi korxona qulay imkoniyatlardan foydalanish uchun nima qilishi mumkinligi va kelgusi iqtisodiy vaziyat o'zgarishlari bilan shartlangan tahdidlarga qanday javob berishini aniqlashdan iborat.

Strategik reja — bu tashkilot oldidagi uzoq muddatga mo'ljallangan vazifalar majmui bo'lib, u tashkilot ko'lamidagi boshqa joriy, yillik rejalar uchun boshlang'ich nuqta xizmatini o'taydi. Strategik rejaning asosiy shakllari besh, o'n va undan ko'proq muddatga mo'ljallangan bo'ladi.

Tashkilotning barcha bo'g'inlariga tegishli bo'lib, butun tashkilot uchun umumiy maqsadlarni aniqlab beradigan hamda uni o'z muhitiga nisbatan yo'nalish ko'rsatadigan rejaga strategik reja deyiladi.

Umumiy maqsadlarni qanday qilib erishish yo'llarini ko'rsatib beradigan reja esa operatsion reja deb yuritiladi. Strategik reja, odatda korxona rahbariyati tomonidan ishlab chiqiladi va uni amalga oshirishda korxonaning barcha xodimlari ishtirok etishadi.

Korxona maqsadi va vazifalarini amalga oshirish yuzasidan batafsil, har tomonlama majmuaviy ishlab chiqilgan reja strategik rejalashtirishning pirovard natijasi hisoblanadi. Strategik rejalashtirish — bu tashkilot rahbariyati tomonidan ishlab chiqilgan qarorlar va xatti-harakatlar majmuidir, buning natijasida tashkilot maqsadlariga erishishni ta'minlashga qaratilgan maxsus strategiyalar ishlab chiqiladi.

Strategik rejalashtirish jarayoni boshqarish qarorlarini qabul qilishda asosiy instrument hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi — tashkilotda kerakli darajada, muhlatda o'zgartirishlar va yangiliklarni joriy etishdan iborat.

Strategik rejalashtirish jarayonini olib borishda asosiy 4 ta boshqarish faoliyati ajratiladi:

1. Resurslarni taqsimlash.
2. Tashqi muhitga moslashish.
3. Ichki muvofiqlashtirish.
4. Tashkiliy strategiyalarni anglash.

Yuqori darajadagi rahbarning asosiy vazifasi faqatgina strategik rejalashtirish jarayonini ishlab chiqish emas, balki uni joriy etish va baholash bilan ham bog'liq. Strategiyani tanlash — strategik rejalashtirishning markaziy masalasi hisoblanib, u bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi: muqobil strategiyalarni aniqlash; aniqlangan muqobil strategiyani qiyomiga yetkazish; qiyomiga yetkazilgan strategiyaga baho berish. Amaliyotda bu bosqichlarni bir-biridan ajratish qiyin.

Zero, ular yaxlit tahlil jarayonining turli darajasidagi tadbirlardir. Faqat turli bosqichlarda turli usullar qo'llaniladi.

Birinchi bosqichda korxona oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirishni ta'minlovchi strategiya belgilab olinadi.

Bunda eng muhim shu maqsadga erishishning turli variantlari ishlab chiqiladi. Bu ishga korxonadagi barcha bo'g'in boshqaruvchilarini jalg qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuvni tanlash imkoniyatini yaratadi. Ikkinchi bosqichda — tanlangan strategiyalar qayta ishlanadi va korxonaning rivojlanish maqsadiga monand keluvchi ko'p qirrali umumiy strategiya shakllantiriladi.

Uchinchi bosqichda — tanlab olingan umumiy strategiya doirasidagi muqobil (variant)lar tahlil qilinadi va uning bosh maqsadni yechishdagi yaroqlilik darajasi baholanadi. Aynan shu bosqichda umumiy strategiya aniq va yangi mazmun bilan to'ldiriladi. Strategik rejalshtirish tashkilot maqsadlarini tanlash va ularga erishish uchun nima qilish zarurligi xususida qarorlarni o'z ichiga oladi. Strategik rejalshtirish barcha boshqaruv qarorlari uchun asos bo'ladi. Ammo har qanday rejani amalda qo'llamaslik balandparvoz so'zlar bo'lib qolaveradi.

Amalga oshirish strategik rejani harakatga keltiradi. Rejalarni tuzishdagi eng asosiy hal qiluvchi bosqich missiyani tanlash va maqsadlarni oydinlashtirish bo'lib hisoblanadi. Bularga erishish uslublari esa mehnat jamoasida erkin xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Korxona rahbarlari strategik rejani amalga oshirish uchun rejalar, dasturlar va loyihalarni ishlab chiqishlari, uni asoslashlari, budget masalalarini hal qilishlari, xullas strategyaning ijrosini boshqarishlari lozim bo'ladi.

Bu tadbirlarning asosiy vazifasi kelajakdagi qarorlarga tayangan holda va qo'yilgan maqsadlarga samarali erishish uchun muqobillarni amalga oshishini boshqarish kerak.

Bundan asosiy maqsad barcha xatti-harakatlarning bir-biriga bog'liqligidir. Rasmiy rejalshtirishning asosiy tashkil etuvchilari bu taktika, siyosat, protsedura va qoidalardir. Taktika. Bu qisqa muddatli reja va strategiyalar. Taktik rejalarning asosiy tansifi:

- taktika strategiyani rivojlantirish uchun ishlab chiqiladi;
- strategiya qariyb barcha hollarda yuqori boshqaruv pog'onalarini tomonidan ishlab chiqilsa, taktika esa ko'proq o'rta pog'ona rahbarlari tomonidan ishlab chiqiladi;
- taktika strategiyaga nisbatan qisqa muddatga mo'ljallangan;
- strategyaning natijalari bir necha yil davomida to'la namoyon

Bo'lmagan paytda taktika natijalari juda tez yuzaga chiqadi va aniq holatlar bilan oson solishtiriladi.

Siyosat. Rahbariyat uzoq muddatli va taktik rejalarni ishlab chiqqanidan keyin, bu rejalar yo'nalishni o'zgartirmaslik maqsadida qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqadi. Strategiyani amalga oshirish jarayonidagi bu bosqich, siyosatni ishlab chiqish bosqichi deb yuritiladi. Siyosat bu maqsadlarga erishishni osonlashtiradigan qaror qabul qilish hamda xatti-harakatlar uchun umumiy qo'llanma bo'lib hisoblanadi. Siyosat yuqori rahbariyat tomonidan uzoq muddatga mo'ljallab ishlab chiqiladi. Masalan, yangi mahsulotni ishlab chiqarish uchun yangi asboblar miqdorini kamaytirish siyosati bo'lishi mumkin.

Protseduralar rahbariyat tomonidan ishlab chiqiladi. Protsedura — bu aniq vaziyatda nima qilish kerakligini ko'rsatadi. Mohiyati jihatidan protsedura dasturlashtirilgan qaror qabul qilishni anglatadi. Umuman olganda individ protseduraga binoan ishlasa, u mustaqil harakat va muqobillarning kam miqdoriga ega bo'ladi. Qoidalar. Rejalarni amalga oshirishda har qanday keraksiz xatti-harakatlardan xoli bo'lish uchun qoidalar ishlab

chiqiladi. Qoida bu qandaydir bir aniq vaziyatda nima ish qilish kerakligini ko'rsatadi. Protseduradan farqli o'laroq chegaralangan va aniq vaziyatlarda qo'llaniladi. Protseduralar esa bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir qancha harakatlar ketma-ketligi bo'lgan vaziyatlar uchun mo'ljallanadi.

Ba'zida ishchilar qoida va protseduralarga erkin harakatni cheklovchi sifatida qaraydilar. Bunday sharoitda qoida maqsadga erishish uchun to'sqinlik qiladi, bu tashkilotda kelishmovchilikni keltirib chiqaradi, shu sababli rahbariyat qoidalarning maqsadi haqida xodimlarga ma'lumot berishi kerak. Hozirgi kunda rejalashtirishni va nazorat jarayonini muvofiqlashtirishning har xil turlari bor.

Keng qo'llaniladigan ikkita boshqaruv instrumetlari mavjud: budgetlar va maqsadlar bo'yicha boshqarish. Budgetlar. Rejalashtirishning asosiy vazifalaridan biri bu iloji boricha resurslarni samarali taqsimlashdan iborat. Rejalar, rahbariyat fikricha, maqsadlarga erishish uchun resurslardan foydalanish xatti-harakatini taqsimlashga ko'maklashadi. Rahbarlar qanday resurslarga ega ekanligini aniqlash uchun rejalashtirishning dastagi bo'lgan budgetlar ishlataladi. Budget bu resurslarni taqsimlash usuli bo'lib, miqdoriy ko'rinishda xarakterlanadi va maqsadlarga erishishga ko'maklashadi. Maqsad va resurslarni miqdoriy aniqlash. Budgetni ishlab chiqishning birinchi qadami maqsad va resurslarni son ko'rinishida ifodalashdan iborat. Keng tarqalgan o'lchovlar bupul va natural ko'rinishlardir. Budgetni ishlab chiqish bosqichlari:

1. Yuqori rahbariyat tomonidan firmaning umumiy maqsadi e'lon qilinadi. Masalan, bashorat etilayotgan sotish hajmi.

2. Bo'limlarda operativ smetaning tayyorlanishi.

3. Yuqori rahbariyat berilgan tadbirlarni budgetga binoan tahlil qiladi va o'zgartirish kiritadi va bo'limlar yuqori rahbariyat ko'rsatgan kamchiliklarga tuzatish kiritadi. Ushbu bosqichda yuqori rahbariyat tashkilotni resurslar bilan taqsimlash vazifasini bajaradi.

4. Yakuniy budgetlarni tayyorlash.

Aytib o'tilgandek nazorat rejalashtirishga asoslanadi. Nazorat samarali bo'lishi uchun uni rejalashtirish bilan chambarchas bog'lash kerak. Budgetni ishlab chiqish bunday bog'liqlik va nazorat samarali miqdoriy usulini tashkil etadi. Inson resurslarida rejalashtirish va nazorat bog'liqligini ta'minlovchi boshqarish uslubi — maqsadlar bo'yicha boshqarish (MBO) uslubi hisoblanadi. Strategik rejani baholash maqsadlar va erishilgan natijalarni solishtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Baholash uzlucksiz va tizimli olib borilishi kerak.

Baholash jarayoni strategiyani tartibga solish maqsadida qo'llaniladi. Strategik rejalashtirishni baholashda quyidagi 5 ta savolga javob berish lozim: Strategiya tashkilotning ichki imkoniyatlari mos keladimi? Strategiya ma'lum darajadagi tavakkallikni taqozo etadimi? Strategiyani amalga oshirish uchun tashkilot kerakli resurslarga egami?

Strategiya tashqi xavf va imkoniyatlarni hisobga oladimi? Strategiya firma resurslarini qo'llashda eng yaxshi usul hisoblanadimi? Baholash jarayonida bir qator miqdoriy va sifatiy mezonlar mavjud. Miqdoriy mezonlarga quyidagilar kiradi: bozordagi hissa, sotish hajmining oshishi, kadrlar qo'nimsizligi, xarajatlar darajasi, samarali ishlab chiqarish va hokazo. Sifatiy mezonlarga esa, mijozlarga xizmat ko'rsatish hajmini oshirish, bozor

haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, imkoniyatlardan foydalanish, xavf miqdorini kamaytirish va hokazo kiradi. Sifatiy va miqdoriy baholash bilan bog'liq muammolar: Vaqt omili. O'lchashning aniqligi. Strategiya va rejalar aniqlangandan keyin rahbariyat umumtashkilot maqsadlariga erishish uchun tashkilot strukturasini o'rganishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Горемыкин В.А., Богомолов О.А. Экономическая стратегия предприятия. Учебник. М.: «Филинъ-Рилант», 2001.
2. Маркова В., Кузнецова С. Стратегический менеджмент. М.: Новосибирск, «Инфра-М», 1999.
3. Zaynutdinov Sh, Shermuhamedov A., Murakaev I. Menejment. T.: 2005.
4. Круглова Н.Ю., Круглов М.И. Стратегический менеджмент. Учебник. М.: РДЛ, 2006.
5. Sharifxojayev M., Abdullayev Yo. Menejment. T.: «O'qituvchi», 2001.
6. N.M.Ziyavitudinova, Y.M.O'rionov, Sh.N.Xayitov. Menejment.T.: 2012.
7. www.Zivo.net
8. www.Management.ru
9. www.wikipedia.org

**PROKURATURA ORGANLARINING QONUNLAR IJROSI USTIDAN
NAZORAT FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISHI.**

Atayev Maksim Dmitriyevich

Toshkent viloyati yuridik texnikum o'quvchisi +99833-197-05-09

Annotation: Mazkur maqlada qonunlarning ijrosi ustidan prokuratura organlarining nazorat faoliyatini tashkillashtirish hamda nazorat faoliyatini amalga oshirishga oid fikirlar yoritib borilgan.

Аннотация: В этой статье законодатель выразил свое мнение по поводу установления надзорных полномочий прокуратуры и реализации надзорных полномочий.

Prokuratura organlarining umumiylari nazorat faoliyatini tashkil etish to'g'risida gapirib, shuni ta'kidlash joizki, prokurorlik nazaratining predmeti va doirasini aniq-ravshan belgilab olish muhim prinsiplardan biridir.

Umumiylari nazorat faoliyatining ikkinchi muhim sharti, bu — butun prokurorlik tizimi iyelerxiyalarini aniq-ravshan belgilash. Bu turli bo'g'indagi prokurorlar ishida parallelizmning oldini oladi, shu bilan birga, qonunlarning aniq va bir xilda Ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishning asosiy yo'naliishlarini ko'zdan qochirmaslikka imkon beradi.

Ya'ni:

● umumrespublika vazirliklari, qo'mita va idoralari hamda jamoat tashkilotlari tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni Respublika Bosh prokuraturasi;

● viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri ijroiya hokimiyati va boshqaruvi, jamoat tashkilotlarining qonunlami ijrosi ustidan nazoratni — tegishlicha viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar prokuraturalari;

● shahar va tum an vakillik organlari, ijro hokimiyati va boshqaruv organlari, yuridik shaxslar, jamoat tashkilotlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni tuman, shahar va ularga tenglashtirilgan ixtisoslashtirilgan prokuraturalar amalga oshiradi;

● harbiy boshqaruv organlari, harbiy qismlar va muassasalar tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni harbiy prokuratura amalga oshiradi va shu kabilar.

Umumiylari nazorat faoliyatini amalga oshirishda kamdan kam holatlarda yuqori turuvchi prokuror quyi prokuroming vakolatlarini o'ziga oladi. Ammo uning bunday vakolati qonunda mustahkamlangan. Umumiylari nazorat faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan prokuroming axborot bilan ta'minlanganligi, qonuniylik holati va aniq nazoratga kiruvchi obyektlardagi huquqbuzarliklaming mavjud Umumiylari nazorat faoliyatini amalga oshirishda kamdan kam holatlarda yuqori turuvchi prokuror quyi prokuroming vakolatlarini o'ziga oladi. Ammo uning bunday vakolati qonunda mustahkamlangan.

Umumiylari nazorat faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan prokuroming axborot bilan ta'minlanganligi, qonuniylik holati va aniq nazoratga kiruvchi obyektlardagi huquqbuzarliklarning mavjud bo'lisligidandir.

Umumiy nazoratning samarasi, shuningdek, ushbu faoliyatni ham markazda, ham joylarda aniq rejalshtirishga bog'liq. Umumiy nazoratning «qamrab bo'lmasligi»ga qaramasdan, prokurorlar o'tkir yo'nalishda ish olib borishlari kerak.

Umumiy nazorat prokuror faoliyatining bir yo'nalishi sifatida o'ziga xos xususiyati bor. Ya'ni umumiy nazoratda muvaffaqiyat ko'p jihatdan prokurorning shaxsiy tashabbusiga bog'liq. Shuningdek, tekshiruv o'tkazish obyektini aniqlash muhimdir. Bunda «anchadan beri borilmagan joy» emas, balki qonun buzilayotgan davlat va mehnat intizomi noxush holatda bo'lgan obyektlar tanlanishi kerak.

Tekshiruvlar o'tkazishda ishni shunday tashkil qilish kerakki, bunda, nafaqat, qonun buzilishlari, balki ularga sharoit yaratgan sabablarni ham aniqlash lozim. Bunda prokurorga jalg qilingan mutaxassislar yordam beradi.

Umumiy nazorat sohasidagi yangi qonunchilik bilan, ayniqsa, tuman va shahar bo'g'ini prokurorlarini o'z vaqtida hamda to'liq tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bu, asosan, yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda yangi qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlarining nisbati murakkab me'yorlariga tushuntirish (sharh) beriladi. Bu ish faolroq o'tkazilishi kerak. Negaki, hozirgi vaqtda amal qiluvchi qonunchilik, jumladan, xo'jalik, tijorat, tadbirkorlik huquqi sohalaridagi qonun va qonunosti hujjatlariga faol o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Jadal islohotlar davrida prokuratura idoralarining umumiy nazorat faoliyatini zamon talablariga javob bera oladigan darajaga ko'tarish lozim. Prokurorlar faoliyatida tashabbuskorlik, fuqarolar va mulkdorlar, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda huquqlilik, adolatparvarlik, qonunbuzarlikka qarshi murosasizlik talab qilinadi. Respublikamiz iqtisodiyotini, mulkchilikning barcha shakllari va tabiiy boyliklari, aholi iste'mol huquqlarini himoya qilishga, davlat va mehnat intizomini mustahkamlashga, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarning bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish zarur.

Qonunlarni aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni barcha subyektlarga nisbatan kuchaytirilishi belgilandi. Buyruqda prokurorlar o'z vakolatlarini amalga oshirganlarida mustaqil boiishlari va faqat qonunga bo'ysunishlari, qonun buzilishlarini o'z vaqtida aniqlashi va oldini olishi, ularga nisbatan tegishli ta'sir choralar qo'llash, buzilgan huquqlarning tiklanishiga erishishlari lozim.

Iqtisodiyot sohasidagi idora va tashkilotlar tomonidan qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish ko'rsatildi. Ayniqsa, respublika agrosanoat kompleksi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni ofib borishda e'tibor bilan yondashish belgilandi.

Bundan tashqari, quyidagi yo'nalishlardagi prokurorlik nazoratini kuchaytirish kerak:

- tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrab-avaylashga oid qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- davlat va xo'jalik intizomini mustahkamlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- tashqi iqtisodiy faoliyatga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat;

- transportga oid qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, korxonalarga oid qonunlar (aksionerlik jamiyatlari, qo'shma, kichik, xususiy korxonalar) ijrosi ustidan nazorat;
- din va vijdon erkinligi, davlat tiliga oid qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- aholini ish bilan ta'minlash va mehnat to'g'risidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- fuqarolaming murojaatlari to'g'risidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- vakolatli idora (shaxslar) tomonidan fuqarolami m a'muriy javobgarlikka tortishga oid qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- iste'molchilar va tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish, soliqbojxona, bank va bank faoliyati hamda bankrotlik to 'g'risidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat va boshqalar.

Bundan tashqari, qonun buzilishlari va ularga ko'maklashayotgan shart-sharoitlarni tamomila bartaraf etish maqsadida nazorat tartibida takroriy tekshirishlarni o'tkazish amaliyotidan keng foydalanish lozimligi uqtirilgan. Umumiy nazorat faoliyatini amalgalashirishda huquqni muhofaza qiluvchi va tekshiruv-nazorat idoralari bilan hamkorlikni kengaytirish zarur, degan ko'rsatma ham buyruqdan o'rinni olgan. Tegishli idoralardan qonuniylik haqidagi m a'lumotlami olib, ulardan umumiy nazorat faoliyatini rejalashtirishda foydalanish lozimligi belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR:

1. M adaliyev O .M . PROKUROR NAZORATI. (Maxsus qism.) Oliy o 'quv yurtlari uchun darslik. T.: «ILM ZIYO», 2012. -4 8 8 bet.
2. O.T. Tojiboyev. Prokuratura organlarining qonunlarni ijro etilishi ustidan nazorati. «Davlat va jamiyat qurilishi» ixtisosligi bo'yicha magistrlik darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2002, 52—53-bet.
3. Xalimov A.X. Prokuraturaning davlat hokimiyati mexanizmi tizimidagi o'rni. - T.: TDYI. 2006.

MEHNAT SHARTNOMASI TUSHUNCHASI

Atayev Maksim Dmitriyevich

Toshkent viloyati yuridik texnikum o'quvchisi +99833-197-05-09

Annotatsiya: Ushbu maqolada ish beruvchi hamda xodim o'rtaida tuziladigan mehnat shartnomasi haqida yoritib borilgan.

Kalit so'zlar: mehnat shartnomasi

Annotatsiya: В данной статье описывается трудовой договор между работодателем и работником.

Ключевые слова: договор найма

Annotation: This article describes the labor contract between the employer and the employee

Keywords: employment contract

Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishslash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishslash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo'yilgan⁴⁰.

Xodim bilan ish beruvchi o'rtaida tuzilgan mehnat shartnomasi mehnatga oid huquqiy munosabatlar yuzaga kelib chiqishiga asos, ya'ni yuridik fakt bo'lib hisoblanadi. Mehnat shartnomasi taraflarining huquq va burchlari mehnat shartnomasi tuzilmasdan yuzaga kelib chiqmaydi.

Mehnat shartnomasi mehnat huquqining negizi bo'lib, mehnatga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mehnat shartnomasini tuzish jarayonida uning taraflari mehnatga oid huquqiy munosabatlarning modelini belgilab, shartnoma imzolanganidan keyin xodim va ish beruvchi uchun majburiy tusga ega bo'ladigan bir qancha shartlarni kelishib oladilar. Demak, mehnat shartnomasi imzolangan paytdan boshlab yuridik kuchga ega bo'lgan yuridik hujjat hisoblanadi. Mehnat shartnomasining taraflari esa mehnatga oid qonun hujjatlari va korxonada qabul qilinadigan lokal hujjatlar (jamoa shartnomasi, ichki mehnat tartibi qoidalari, mukofotlash to'g'risidagi nizom va b.)da ko'zda tutilgan huquqlarga ega bo'ladilar va majburiyatlarni o'z zimmalariga oladilar.

Mehnat shartnomasi – xodim bilan ish beruvchi o'rtaidagi muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozimga oid ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir.

Mehnat shartnomasining asosiy belgilar quyidagilardan iborat bo'ladi:

a) muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozim (mehnat funksiyasi) bo'yicha ishslash.

Bunda mehnat shartnomasida taraflar kelishuviga ko'ra belgilangan aniq bir mutaxassislik, malaka yoki lavozim doirasida har qanday ish bajarilishi mehnat

shartnomasining predmeti hisoblanadi. Shu sababli agar xodim muhandis, o'qituvchi, sotuvchi, bog'bon, farrosh va shu kabilar sifatida ishga qabul qilinayotgan bo'lsa, u qanday muddat davomida mehnat qilishidan qat'iy nazar, u bilan mehnat shartnomasi tuzish zarur.

b) xodim mehnat shartnomasida ko'zda tutilgan ishni shaxsan o'zi bajarishi.

Xodim mehnat shartnomasida ko'zda tutilgan muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozim bo'yicha ishni shaxsan o'zi bajarishi shart. U mazkur ishni bajarishni boshqa biror shaxsga topshirishga yoki uni bajarish uchun boshqa shaxslarni jalb etishga haqli emas.

v) xodimning ichki mehnat tartibi qoidalariga bo'ysunishi.

Mehnat munosabatlarida mehnat shartnomasi taraflari teng bo'lishi bilan bir vaqtda, xodim ish beruvchining qonuniy topshiriqlariga mazkur shartnoma doirasida bo'ysunadi. Xodim zimmasiga ichki mehnat tartibi qoidalariga bo'ysunish majburiyati yuklanadi.

g) mehnat shartnomasida haq to'lash ko'zda tutilishining alohida xususiyati.

Mehnat shartnomasi bo'yicha haq to'lashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu ish xodimning mehnatiga haq to'lash vositasida amalga oshiriladi. Bunday haq to'lash xususiy-huquqiy (fuqarolik huquqiga xos bo'lgan) usullar asosida ham, ommaviy-huquqiy usullar asosida ham tartibga solinadi.

d) mehnat shartnomasi tuzgan xodim korxona mehnat jamoasiga kiritilishi.

O'zR MKning 19-moddasi birinchi qismiga muvofiq, o'z mehnati bilan korxona faoliyatida mehnat shartnomasi asosida ishtirok etayotgan uning barcha xodimlari korxona mehnat jamoasini tashkil etadilar. Demak, mehnat shartnomasi tuzgan barcha xodimlar o'zları mehnat munosabatlariga kirishgan korxonaning mehnat jamoasiga qo'shiladilar.

Mazkur kodeksning 72-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo'lib hisoblanadilar.

Umumiy qoidaga ko'ra, ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi. Istisno hollarda ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziliqi bilan yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtida bajarishi uchun – ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Mehnat shartnomasini tuzish jarayonida xodimlarning qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan mehnat huquqlari va kafolatlari darajasi pasaytirilishi mumkin emas (MKning 5-moddasi).

Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuvi bilan quyidagi asosiy shartlar belgilanadi:

- ish joyi (korxona yoki uning bo'linmasi);
- xodimning vazifasi – mutaxassisligi, malakasi, u ishlaydigan lavozim;
- ishning boshlanish kuni;
- mehnat shartnomasi muayyan muddatga tuzilganda uning amal qilish muddati;
- mehnat haqi miqdori va mehnatning boshqa shartlari.

• Ba'zi mehnat shartnomalarini tuzishda zarur shartlar ro'yxati kengaytirilishi mumkin. Masalan, muddatli mehnat shartnomasini tuzishda ishning nafaqat boshlanish sanasi, balki uning tamom bo'lish sanasi ham belgilab qo'yiladi. Muayyan ishni bajarish

vaqtiga mo'ljallab mehnat shartnomasi tuzilayotganda xodim bajarishi lozim bo'lgan ish aniq ko'rsatilishi zarur. O'rindoshlar bilan mehnat shartnomasini tuzilayotganda qonun hujjalari bilan nazarda tutilgan kundalik ish vaqtining aniq muddati bevosita mehnat shartnomasida belgilanadi.

• Taraflarning kelishuviga ko'ra, mehnat shartnomasi mazmuniga taraflarning majburiyatlarini aniqlash, ularni to'ldirish, xodimga qo'shimcha imtiyoz va afzalliklar berilishni nazarda tutgan qo'shimcha shartlar ham kiritilishi mumkin.

• Jumladan, xodim dastlabki sinov muddati bilan ishga qabul qilinayotgan hollarda, sinovning aniq muddati belgilanishi; tarif stavkalari, mansab maoshlari, qo'shimcha haqlar, ustamalar, mukofotlar va boshqa tarzdagi to'lvlarning yuqoriroq miqdorini yakka tartibda belgilash; xodim uchun to'liqsiz ish kuni, to'liqsiz ish xafiasi, qisqartirilgan ish vaqt, soatbay ish, ish kunining boshlanishi va tamom bo'lishi va boshqalar; ijtimoiy-maishiy tusdagi shartlar, masalan, transport xizmati, markazlashtirilgan tartibda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash; muddatli mehnat shartnomasi muddatidan oldin bekor qilinganda neustoyka to'lash kabi shartlar kiritilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi XII bob 102-modda hujjat 30.04.2023 sanasi holatiga
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi XII bob 106-modda hujjat 30.04.2023 sanasi holatiga

**SHAHRISABZDA ANA'NAVIY HUNARMANDCHILIK TURLARI (MILLIY
SO'ZANALAR VA KASHTACHILIK)**

Jalilov Asqar Yo'ldosh o'g'li

Shahrisabz davlat muzey qo'riqxona Hisobga olish bo'lim boshlig'I asqarjalilov14@gmail.com

Annotatsiya: Shahrisabz vohasida ana'naviy hunarmandchilik turlari (kashtachilik, suzana, do'ppichlik tarixi va uning uziga xos xusisiyatlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Shahrisabz kashtachilik san'ati XIX asrga kelib, o'ziga xosligi, an'anaviyligi bilan O'rta Osiyoda shuhrat qozondi. Uning qadimgi nusxa kompozitsiyalari ko'p jihatdan gilam ko'rinishini eslatadi. Islomiy naqsh – to'p barg, gulli, ko'ngirali "Hirot zanjirlari" Shahrisabz so'zanalarida uchraydigan naqshlarga ham tegishlidir.

Shahrisabz kashtachiligi asosan "iroqi" uslubida tikilsa-da, unda "yo'rma" va "kandaxayol" choklaridan keng foydalanilgan. Kashtaning hoshiyalari va markaziy maydonini ajratib turuvchi "oba" chiziq yo'llari ham ana shunday uslubda bajarilgan. O'sha vaqtarda beklar va amirlar saroylari kashtachilik namunalariga buyurtma beruvchi asosiy iste'molchilardan hisoblanar edi. Shu bois bu milliy mahsulot ko'pincha shahar muhiti va tarovatining estetik didini o'zida aks ettirgan.

Kalit so'zlar: Shahrisabz vohasi, Buxoro amirligi, Samarqand, Nurota, Amir Temur, So'zana, Oq-Saroy saroyi, Dorus Saodat, Mahmud ibn Valiy

**ВИДЫ ТРАДИЦИОННЫХ РЕМЕСЕЛ ШАХРИСАБЗА (НАЦИОНАЛЬНЫЕ
СЮЗАНА И ВЫШИВКА)**

Аннотация: В Шахрисабзском оазисе история традиционных ремесел (вышивка, сюзаны, шляпное производство) и их уникальные особенности уходят в далёкое прошлое. Оно прославилось в Средней Азии. Цветочные коричневые «Цепи Хирот» также связаны с мотивами созан Шахрисабза.

Хотя шахрисабзская вышивка в основном шьется в стиле «ираки», в ней широко используются стежки «йорма» и «кандахайол». Линии «оба», разделяющие края и центральную часть вышивки, выполнены в одном стиле. В то время дворцы бегов и эмиров были одними из основных потребителей, заказывающих образцы вышивки. Поэтому этот национальный продукт зачастую отражает эстетический вкус городской среды и свежесть.

Ключевые слова: Шахрисабзский оазис, Бухарский эмират, Самарканد, Нурута, Амир Темур, Созана, Белый дворец, Дорус Саодат, Махмуд ибн Вали.

**TYPES OF TRADITIONAL CRAFTS IN SHAHRISABZ (NATIONAL SUZANI
AND EMBROIDERY)**

Annotation: In the Shahrisabz oasis, the history of traditional handicrafts (embroidery, suzana, hat making) and its unique features go back to the distant past. Its new copies are reminiscent of many

Islamic patterns - a ball of leaves, flowers, "Hirat Chains" also refers to the patterns built in Shahrisabz words.

Although Shahrisabz embroidery is mainly sewn in the "Iraki" style, "yorma" and "kandakhayol" stitches are widely used in it. The borders of the embroidery and the "oba" lines that make up the central area are also made in the same style. At that time, the palaces of begs and emirs were considered consumers for ordering embroidery samples. Therefore, this national product often reflects the aesthetic taste of the city environment and freshness.

Key words: *Shahrisabz Oasis, Bukhara Emirate, Samarkand, Nurota, Amir Temur, Sozana, White Palace, Dorus Saodat, Mahmud bin Vali*

Shahrisabz kashtachilik san'ati XIX asrga kelib, o'ziga xosligi, an'anaviyligi bilan O'rta Osiyoda shuhrat qozondi. Uning qadimgi nusxa kompozitsiyalari ko'p jihatdan gilam ko'rinishini eslatadi. Islomiy naqsh – to'p barg, gulli, ko'ngirali "Hirot zanjirlari" Shahrisabz so'zanalarida uchraydigan naqshlarga ham tegishlidir.

Shaxrisabz kashtachiliqi asosan "iroqi" uslubida tikilsa-da, unda "yo'rma" va "kandaxayol" choklaridan keng foydalanilgan. Kashtaning hoshiyalari va markaziy maydonini ajratib turuvchi "oba" chiziq yo'llari ham ana shunday uslubda bajarilgan. O'sha vaqtarda beklar va amirlar saroylari kashtachilik namunalariga buyurtma beruvchi asosiy iste'molchilardan hisoblanar edi. Shu bois bu milliy mahsulot ko'pincha shahar muhiti va tarovatining estetik didini o'zida aks ettirgan.

Ma'lumki, ulug' sarkarda Amur Temur ham o'sha vaqtarda boshqa yurtlardan eng yaxshi naqqosh va hunarmandlarni olib kelganligi bois shaharda hunarmandchilik yaxshi rivojlangan. Natijada Shahrisabz kashtachiligidagi ham naqqoshlik, o'ymakorlik bilan bog'liqlik, gul shakllarining tushurilishi, barg naqshlari bilan boyitilgan o'simlik shakllarini ifodalovchi bezak uslublari yaxshi rivojlangan va haqiqiy bezak kompozitsiyalarini, xalqona shakllarni o'zida mujassamlashtirgan tasvirlar paydo bo'lgan.

Kashtalarini tayyorlashda qo'lda tikilgan paxta yoki shoyi matodan, shuningdek, ipak va jundan foydalanilgan. Shu tariqa kashtachilikning rivojlanishi tufayli Shahrisabzda hunarmandchilikning bu turi o'z rang-barangligi, serjiloligi hamda sifatliligi bilan dovrug' qozongan. Tadqiqotchilarining aytishicha, Shahrisabz kashtasi gulbezaklarining ko'pligiga ko'ra, Buxoro va Nurota kashtachilik namunalariga yaqindir.

Nurota kashtachiligidagi gul tasvirlariga nazokat va nafislik baxsh etuvchi erkin tagligi katta o'rin tutsa, Shahrisabz kashtachiligidagi taglikni to'laligicha naqsh bilan bezash yoki bezakning bir tekisda taqsimlanishi yanada yorqin aks etadi. Shu sababli Shahrisabz kashtachiligining asosiy va qo'shimcha bezaklari boy va turli tumanligi, jozibali va serqirraligi bilan ajralib turadi. Barglar va gul zangilaridan iborat cheksiz bu manzara mo'l ko'lchilik, jo'shqinlik, bahor va hayot ramzlarini ifodalaydi. Shahrisabz bezakchiligidagi keng tarqalgan yo'naliishlardan biri, ko'plab mayda gullar bilan bezatilgan novdalarning ko'rinishidir.

Bu uslub xalq kashtachilik san'ati hamda saroy san'atida ham keng tarqalgan. Ular Shahrisabz yodgorliklari va me'moriy bezaklarida ham o'z aksini topgan. Ko'p bargli bezakning o'zi ham Sharq xalqlarida quyosh belgisini ifodalaydi.

To'yga atab tikilgan kashta va so'zanalarida ham hayot, quyosh, hosildorlik ramzlari aks etadi. Kashtalarning rangi bezak sifatlarini kuchaytiruvchi yorqin ranglar jilosi bilan ajralib turadi. XIX asr o'rtasida anilin buyoqlaridan foydalanish Shahrисабз kashtalari sifatiga salbiy ta'sir qildi. Garchi kashta tikishda safsar, moviy, yashil kabi ranglardan foydalanish imkoniyati paydo bo'lgan bo'lsada, kashtalar o'ziga xos bo'lgan tabiiy ranglar uyg'unligidan mahrum bo'ldi.

XIX asr oxirlariga kelib, Shaxrisabz kashtalari xalq san'atining noyob asarlari darajasiga yetdi va temuriylar davridan beri saqlanib kelayotgan an'anaviy madaniyatning nechog'li betakror bo'lganligini yana bir bor isbotladi. XIX-asr oxiriga kelib O'zbekistonda bir qancha mahalliy kashtachilik maktablari shakllandi.

Bir tomondan, ularning kompozitsiyalari va bezak dekoratsiyasining tabiatini bo'yicha ko'p umumiylklari bor edi; boshqa tomondan, ular o'ziga xos, xususiyatlari va dekorativ naqshlar va rang berish usullarining xilma-xilligi bilan ajralib turardi. Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Shahrисабз (Qashqadaryo viloyati) kashtachiligi alohida qiziqish uyg'otadi.

Uning nomi "yashil shahar" degan ma'nun anglatuvchi "ko'katlar va ko'zni qamashtiruvchi gullarning ko'pligi tufayli" berilgan . Shahrисабз Amir Temur mansub bo'lgan Barlos urug'inining mulki edi. Shahardagi mashhur me'moriy yodgorliklar – Oq-Saroy saroyi, Temuriylar davrining Dorus Saodat oilasi qabri va Ko'k-Gumbaz masjidi XIV-XV asrlarda Movarounnahrning yirik ma'muriy va madaniy markazi bo'lganligidan dalolat beradi. Amir Temur bu shaharga musulmon Sharqining turli davlatlaridan ko'plab rassom va hunarmandlarni olib kelgan va bu shaharning yirik hunarmandchilik markaziga aylanishiga yordam bergen.

XIX -asrda Shahrисабз Buxoro amirligi bekligining markazi bo'lib, bu yerda savdo va hunarmandchilik rivoj topdi. Asosan bek va amirlarning xonadonlari kashta tikishga buyurtma bergen va sotib olgan, shuning uchun Shahrисабз ayollari o'zlarini uchun mayda buyumlar va katta-katta buyumlarni, masalan: suzana, liboslar va otlar, aristokratlar uchun . Shahrисабз kashtalari shahar muhitining estetik afzalliklarini aks ettirdi, bu esa o'z navbatida katta xonadonlarga qarashli ustaxonalarda ishlayotgan rassom va hunarmandlarning ijodiga asoslangan edi.

Kashtachilik naqshlari va o'rta asr me'morchiligi dekoratsiyasi o'rtasida juda ko'p umumiylilik topilishi ajablanarli emas: ular islam san'atidagi yagona bezak uslubining aksi bo'lib, ularning klassik ifodasi gul palmetlari va naqshlari bilan to'la nafis barglar dekorasi edi. rozetlar, silliq o'ralgan barglar va spiral motiflar.

Ammo xalq dizayni an'analari shahar kashtachiligining bezaklarining kelib chiqishida muhim rol o'ynagan. Natijada, professional bezak kompozitsiyalarining sintezi va shakllarning xalq talqini bo'lgan dizaynlar paydo bo'ldi.

Shahar suzanlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular asosiy panelning o'rtasida gulli rozet shaklida katta medalyonni o'z ichiga olgan kompozitsiyalar, gul naqshlarining ko'pligi va boyligi va ehtiyyotkorlik bilan bezatilgan keng hoshiyaga ega. Chegara odatda uchta qismidan iborat edi - asosiy markaziy va ikkita qo'shimcha tor qism - lekin suzanning

o'rta paneli kabi keng edi. Bunday kompozitsion uslublar gilamlarga ham xos bo'lib, ko'pincha tikuvchilarga taqlid qilish uchun namuna bo'lib xizmat qilgan.

Kashta tikishda uyda paxta yoki shoyi mato, ipak yoki jun ipdan foydalanilgan. Aytish kerakki, shahar kashtachiligi yuqori sifatli ishlov berishni ko'rsatdi. Shahrisabzlik tikuvchilar qanda-xayol chokini afzal ko'rgan bo'lsa, basma, yurma, iroki choclarini ham qo'llagan. Tadqiqotchilar Shahrisabz kashtalarining gulli bezaklari jihatidan Buxoro va Nurota kashtalariga o'xhashligini qayta-qayta ta'kidlaganlar.

Bu shunchaki tasodif emas. Buxoro bir amirlikning poytaxti bo'lib, boshqa shaharlar uchun namuna bo'lган.

Boshqalar buni hamma narsada, shu jumladan shahar mashhur bo'lgan kashtachilik san'atida nusxalashga intilishdi. Shahrisabz kashtachiligi Buxorodagiga qaraganda kompozitsiya jihatidan kam xilma-xillik ko'rsatadi. Nurotaga kelsak, uning dekorativ qoplamasi bo'sh panelni o'z ichiga olgan bo'lib, uning gul naqshlariga nafislik va nafis nafislik baxsh etgan. Lekin Shahrisabz kashtachiligidagi yo panno uzluksiz ishlov berilgan yoki bezak bir tekis zichlik bilan taqsimlangan, bunda matoning ohanglangan fonining kichik joylarigina bo'sh qolgan.

Kichikroqlari (gullar, novdalar, barglar) bilan to'ldirilgan katta bezak naqshlari zig'irning butun yuzasini to'ldirib, bo'sh joy qoldirmadi.

Shahrisabz kashtachiligining asosiy va qo'shimcha motivlari boyligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Barg kurtaklari va gul palmetlarining cheksiz naqshlari mo'l-ko'llik, bahor, hayot va tabiatning ulug'vorligi g'oyasini ramziy qildi. Ular o'rta asrlarda dunyoning eng go'zal maskanlaridan biri hisoblangan Shahrisabzning go'zalligini o'zida mujassam etgandek edi. – Bahorda uning yonbag'irlaridagi ko'klatlarning jilosi va fayzliligi shu qadar cho'ziladiki, bu yerda jannat gilami yotqizilgandek bo'ladi. uylarning tomi va devorlarida anemon va boshqa gullar o'sadi", deb yozadi Mahmud ibn Valiy

Shahrisabz suzanasi bezaklarining asosini guldar palmetalar va rozetlar tashkil qiladi va tikuvchilar ularga alohida e'tibor beradi. Ular, odatda, gulning uzunlamasina kesmadagi ko'rinishini yoki gulning yuqorida ko'rinishini ifodalovchi katta, nozik shakllardir. Hech bir gul boshqasiga o'xshamaydi va odatda barglarning keng halqasidan hosil bo'lgan ramka ichiga chiziladi, bu unga yanada monumental, boy ko'rinish beradi. Aytgancha, ushbu qurilma ham professional rassomlardan olingan. Gul naqshlari dizaynning ko'plab boshqa versiyalarini keltirib chiqaradi.

Masalan, Shahrisabz bezaklarining yana bir sevimli motivi - bu ko'plab mayda gullar bilan bezatilgan gulli buta xalq va saroy san'atida mashhur bo'lib, Shahrisabzdagi me'morchilik bezaklarida tez-tez qo'llanilishidan dalolat beradi. Shahrisabz kashtachiligidagi asosan musulmon Sharqida mashhur bo'lgan naqshlar qo'llanilsa-da, ularni qo'llash usuli bilan farqlanadi, bu esa ularni o'ziga xos san'at asariga aylantiradi. Hech bir element boshqasini takrorlamadi, lekin dekorativ ishlov berishning o'ziga xos xususiyatlari tufayli noyob edi.

Shahrisabz kashtachiligidagi gul naqshlarining ko'pchilagini nafaqat me'moriy bezaklarda, balki san'atning boshqa turlarida ham ko'rish mumkin. Asosan hoshiyada qo'llaniladigan chahar-chirag (to'rt chiroq) naqshi Shahrisabz kashtachiligidagi xosdir.

Motif kundalik foydalanishda keng tarqalgan chiroq shakliga o'xshashligi sababli shunday nomlangan. Bu o'rtacha kattalikdagi gulli rozet (yuqoridan ko'rinib turibdiki), undan bir xil o'lchamdagisi palmetalar gulning bo'ylama qismini ifodalaydi, ularning har biri bargli halqalar bilan o'ralgan, to'rt tomondan ingichka shoxchalar ustida chiqib turadi. Bu naqsh temuriylar davri sopol buyumlarida tez-tez uchrab turadi, bu yerda u taomning asosiy bezaklari vazifasini bajaradi.

Ko'pincha chegara dizayni katta gul palmetasi va chahar-chirag naqshlari o'rtasidagi almashinish shaklida bo'ladi. Yana bir tez-tez uchraydigan hoshiya dizayni Hirot naqshidir, ikki tomondan qirrali novda bilan o'ralgan katta gulli palmet.

Temuriylar sultanatining poytaxti Hirotdagi saroy ustaxonasi badiiy jarayonning yetakchisi bo'lgan XV asrda paydo bo'lgan bu dizayn Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda eng mashhur gilam va mato naqshlaridan biriga aylandi. Hatto oz sonli bezak naqshlarini tahlil qilish ham Shahrisabz kashtachiligining yanada rivojlanishida temuriylar davri san'ati muhim o'rin tutganini qayd etish imkonini beradi.

Suzana dekorining chuqur semantik mazmuni bilan ham ajralib turadi. Markaziy rozetning atrofidagi xo'rozlar - bu qushlarning kichkina, stilize qilingan figuralari bo'lib, dumi vilkalari va boshlarida uchburchak tepasi va orqalarida xuddi shunday tridentli. Bu trident oddiygina, qadimgi zardushtiylik an'analariga ko'ra, qushlarning orqasiga o'rnatilgan chiroqning stilize qilingan tasviridir.

Qadimgi davrlarda muqaddas qushlarning kichik haykallari ossuariylarga qo'yilgan va olov yoqilgan kichik chiroq uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Bu an'ana shu qadar arxaikki, asosan, u faqat konservativ shakllarga ega bo'lgan san'at turlarida saqlanib qolgan.

Bunday mayda lampalar turkman yomud gilamlaridagi qushlar tasvirida, turkman taqinchoqlari va ubalik hunarmand Hamro Rahimova yasagan loydan yasalgan o'yinchoqlarda uchraydi. Shahrisabz kashtachiligidagi bu naqshning saqlanib qolgani xalq an'analarini bardavomligining o'ziga xos namunasidir.

Uning ma'nosi uzoq vaqtidan beri unutilgan edi, ammo orqasida chiroq ko'tarib yurgan qush bilan bog'liq himoya g'oyasi qolgan edi. Kokerellar qadim zamonlardan beri quyoshning ramzi sifatida qabul qilingan va unumdoorlik g'oyasi bilan bog'langan.

Ushbu ma'noni boshlang'ich nuqtasi sifatida olib, ular syuzanda joylashgan markaziy doira shunchaki quyoshning rasmidir, degan xulosaga kelish qiyin emas. Hoshiyadagi gullar diametri bo'ylab bodom (bodom) naqshlari bilan bezatilgan bo'lib, ular quyoshning yana bir ramzi bo'lgan aylanma rozetga o'xshaydi.

Hatto ko'p bargli rozelarning o'zi ham ko'plab Sharq xalqlari orasida quyoshni ifodalash uchun xizmat qilgan. Shunday qilib, nega ramziy ma'nosi hayot, quyosh va unumdoorlik g'oyalari bilan bog'liq bo'lgan bu dizaynlarning barchasi to'y uchun kashta tikilgan syuzanda paydo bo'lishi aniq bo'ladi. Uning butun tarkibi baxtli kelajak hayot orzulari bilan bog'liq ma'noni ochib beradi.

Shahrisabz liboslarining o'ziga xos xususiyati boy bezak va yuqori sifatli mahorat bo'lib, undan aristokratik didlar va o'sha davr modasi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Liboslar odatda doimiy ishlangan fonga ega bo'lib, ular mustahkamlik, hashamat va boylik

taassurotlarini bildirar edi, ko'pincha sariq (fonda) va qizil (asosiy naqshlar) kontrast ranglarning kombinatsiyasi xalatga ko'zni qamashtiruvchi yorqinlikni berdi.

Katta gulli palmetalar, vazadagi gullar naqshlari yoki qarama-qarshi rangdagi ko'ndalang chiziqlar bilan bezatilgan qalin poyadagi bodomlar xalat bezash uchun asos bo'lган. Ko'krak qafasi qanday tutilganini ko'rish qiziq. Ular bodomni, olov tilini yoki oqlangan buklangan bargni eslatuvchi shaklga ega naqshlardir. (Bu ko'plab Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lган polisemantik element bo'lib, kelib chiqishi alohida tavsifni talab qiladi). Uni dekorativ ishlov berishga katta e'tibor berildi.

Misol uchun, barg yarmiga bo'lingan, bir qismi qizil va sariq chiziqlardan iborat bo'lsa, ikkinchisi oq fonni saqlaydi, ularda kichikroq, qizil tanachalar joylashgan. Shunga o'xshash bezak naqshlari poponlar (ko'rpa-to'shaklar) uchun xarakterlidir, ular ko'pincha xalatlar bilan bir xil tarzda bajariladi va ular bilan o'ziga xos to'plamni tashkil qiladi. An'anaga ko'ra, otlar ham ehtiyyotkorlik bilan bezatilgan.

Guvoh, nemis olimi va sayohatchisi Von Shvarts 20-asr boshlarida shunday deb yozgan edi: "Oltin naqshli poponlar men ko'rgan eng hashamatli narsalardan biridir. Turkiston quyoshi nurlari ostida boy kiyingan otlar mutlaqo hayratlanarli taassurot qoldiradi.

Ranglar va qimmatbaho matolarni samarali tanlashga kelsak, O'rta Osiyo xalqi o'zining qo'rg'oshin osmoniga o'rganib qolgan yevropalik rassomlardan ancha ortda qolib ketgan". Albatta, kashtado'zlik ranglari yorqin diapazoni bilan ajralib turardi, bu uning dekorativ xususiyatlarini kuchaytirdi.

Tikuvchilar bir nechta ranglardan foydalangan holda, ularni bir-biriga qarama-qarshi qilib birlashtirib, turli xil ranglar ifodasini qidirdilar. Eng mashhur kombinatsiyalar orasida malina qizil to'q yoki och ko'k va yorqin qizil sariq rangga ega. XIX-asr oxirida anilin bo'yoqlarining keng tarqalishi Shahrisabz kashtachiligi sifatiga putur yetkazdi.

Ranglar diapazoni sezilarli xilma-xil soyalarni - binafsha, firuza, pushti va yashil ranglarga ega bo'lsa-da, kashtado'zlik tabiiy ranglarning haqiqiy yumshoq va uyg'un kombinatsiyasini yo'qotdi. XIX-asr oxiri – Shahrisabz kashtachiligi shunchaki xalq amaliy san'atining ajoyib namunalari emas;

Bu shaharda Temuriylar davridan beri saqlanib qolgan an'anaviy madaniyatning yuksak darajasidan dalolat beradi. U o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy merosida munosib o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://Culture of Central Asian>.
2. Mahmud ibn Vali "Baxur al asror".
3. <https://Kamoliddin Behzod nomidagi memorial park muzeyi>.
4. <https://Journal of the academy of arts of Uzbekiston>
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Shahrisabz_Suzani
6. <https://iqmena.livejournal.com/384676.html>
7. <https://blog.roomstogo.com/oriental/uzbek/suzani/shahrisabz/>

IJTIMOIY-IQTISODIY JARAYONLARNI MOLIYAVIY TARTIBGA SOLISH

Qurbanova Shohsanam Tojiddin Qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri

Annotatsiya: *Zamonaviy iqtisodiy dunyo - aralash iqtisodiyot dunyosidir. Bu qoida o'ziga xos o'zgarmas haqiqat hisoblanadi va uni inkor etish mumkin emas. Dunyoning hyech bir rivojlangan mamlakatida jamiyat ustidan bozoming «mutlaq hukmron» bo'la olmaydi. Shunga qaramasdan, barcha bozor qonunlarining harakati ob'ektiv bo'lib, ulami bekor qilib bo'lmaydi.*

Abstract: *The modern economic world is a mixed economy world. This rule is an immutable truth of its own and cannot be denied. In any developed country of the world, your boss cannot have "absolute control" over society. However, the action of all market laws is objective and therefore cannot be revoked.*

Xuddi shuningdek, bozor institutlari «nomenklatura»sining kengayishi, ular o'rtaqidagi aloqalarning murakkablashuvi, yangi tizimlaming (evolyusiya yoki taraqqiyot qonunlariga muvofiq ravishda) shakllanishini ham rad etib bo'lmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga davlatning ta'siri quyidagi maqsadlar uchun zamr:

- hayotiy faoliyatning umumiyligi sharoitlari va iqtisodiy qaroriarning amalga oshirilish asoslarini, jamiyatning xavfsizligini, mulkka egalik qilish huquqi va shaxsning erkin rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy rejim o'rnatish va uni himoya qilish, samarali raqobatni qo'llab-quwatlash va rivojlantirish davlat uchun har doim zamr;

- barqarorlashtiruvchi tadbirlarni amalga oshirish (davlat iqtisodiy o'sishning sur'adarini, inflyasiya va bandlik darajasini tartibga solib turishi, iqtisodiyotning tarmoq va mintaqaviy tuzilmasidagi 105 A.V. Vahobov, T.S. Malikov ilg'or o'zgarishlarni rag'batlantirishi, tashqi iqtisodiy muvozanatni va milliy valyutaning kursini qo'llab-quvvatlashi lozim);

- resurslarning ijtimoiy yo'naltirilgan qayta taqsimlanishini amalga oshirish (davlatjamiyat uchun zarur bo'lgan, lekin xususiy sektor shug'ullanmaydigan ishlab chiqarish tizimini yo'lga qo'yish, ish haqi, pensiyalar, nafaqalarning minimal darajasini kafolatlashi, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga yordam berishi, qat'iylashtirilgan daromadlarning indeksatsiyasini amalga oshirishi zarur). Rivojlangan har qanday davlat yirik mulkka - mamlakat milliy boyligining katta qismiga - ega bo'ladi.

Dastlab, davlat xarajatlari tavsifiga murojaat qilish kerak.

Chunki aynan davlat xarajatlari davlat moJiyasining ijtimoiy vazifasi nimadan iborat ekanligini aniq ko'rsatadi. Shunga mos ravishda, aynan davlat xarajatlarining tarkibi, tarkibiy tuzilmasi va hajmi moliya tizimi faoliyatining natijalarini o'zida aks ettiradi va bu tizim ijtimoiy takror ish lab chiqarish jarayonida o'z funksiyalarini bajarayaptimi yoki yo'qmi, degan muarnrnoni aniqlashga imkon beradi.

Takror ish lab chiqarish jarayonida davlat moliyasining rolini aniqlab olish uchun ularni bir necha belgilarni klassifikatsiya qilish mumkin.

Bu mulk, asosan, moddiy buyumlar shaklida (tabiiy boyliklar, binolar, inshootlar, ish lab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalar, muzeylar, qo'riqxonalar, davolash manbalari, kutubxonalar, oltin zaxiralari va h.k.) mavjud bo'Jib, o'zining mo'ljallanganligiga ko'ra ular davlat boshqaruvi va iqtisodiy tartibga solishda joriy ehtiyojlarni «to'lash» uchun ishlatilmasligi kerak.

Ma'lumki, hozirgi va kelajak avlodga mo'ljallangan milliy boyliklar behuda ishlatilmaydi, aksincha, ko'paytirib boriladi.

Shuning uchun ham davlatning (agar, albatta, davlat hududlar, aholi, an'analar va h.k.lar majmuasi sifatida emas, balki boshqaruv organi sifatida qaralsa) haqiqiy boyligi uning markazlashtirilgan pul fondidan, ya'ni davlat moliyasining moddiy asosidan iborat ekanligi ma'lum bo'ladi.

Barcha zamonaviy iqtisodiy makon uchun turli-tuman pul oqimlarining harakati va ularning bir-birlari bilan qo'shilib ketishi, o'z o'lchami bo'yicha turlicha bo'igan pul fondlarini (shaxsiy, jamoa, kredit, rezerv, valyuta, sug'urta, byudjet, markaziy, mintaqaviy, homiylik va boshqalar) shakllantirish va ulardan foydalanish xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: «O'zbekiston», 2015.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 498-sonli «Byudjetdan tashqari pensiyajamg'armasi mablag'larini shakllantirish va xarajat qilish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida,)gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika yo'l jamg'armasi va «O'zavtoyo!» davlat aksionerlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida,)gi 36-sonli qarori, 2013 yil.

**BUXORODA ME'MORIY YODGORLIKlardan ARK QO'RG'ONINING
QURILISH TARIXI VA SOTSIAL JIHATLARI**

Savriyeva Dilorom Sirojiddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya
yo'nalishi 1-kurs talabasi E-mail: savriyevadilorom2@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola Buxorodagi eng qadimiy va muhim me'moriy yodgorliklardan biri bo'lgan Ark qo'rg'oni tarixiga bag'ishlangan. Unda Ark qo'rg'onining tashkil etilishi, uning siyosiy va strategik ahamiyati, me'moriy tuzilishi hamda asrlar davomida vayron bo'lishi va zamonaviy ma'lumot berilgan. Ark qo'rg'oni hozirda muzey sifatida faoliyat yuritib, Buxoroning diqqatga sazovor joyi bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: Buxoro, Ark qo'rg'oni, me'moriy yodgorlik, Buxoro amirligi, tarix, madaniy meros, Markaziy Osiyo.

**ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ КРЕПОСТИ АРК
ОДНОГО ИЗ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ БУХАРЫ**

Савриева-доч Дилорома Сирожиддинна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека Студентка 1
курса социологии факультета социальных наук Электронная
поята:savriyevadilorom2@gmail.com

Абстрактный: Данная статья посвящена истории крепости Арк, одного из старейших и важнейших архитектурных памятников Бухары. В нем описывается создание крепости Арк, ее политическое и стратегическое значение, ее архитектурная структура и ее разрушение на протяжении века, а также современная информация. Крепость Арк сейчас является музеем и остается достопримечательностью Бухары.

Ключевые слова: Бухара, крепость Арк, памятник архитектуры, Бухарский эмират, история, культурное наследие, Центральная Азия

Savriyeva is the daughter of Dilorom Sirojiddin

National University of Uzbekistan named after Mirzu Ulugbek 1st-year student of Sociology, Faculty of Social Sciences E-mail:savriyevadilorom2@gmail.com

Annotation: This article is devoted to the history of Ark fortress, one of the oldest and most important architectural monuments in Bukhara. It describes the establishment of the Ark fortress, its political and strategic importance, its architectural structure and its destruction over the centuries, as well as modern information. The Ark fortress is now a museum and remains a landmark of Bukhara.

Keywords: *Bukhara, Ark fortress, architectural monument, Bukhara Emirate, history, cultural heritage, Central Asia*

KIRISH

Buxoroning eng qadimiy va eng mashhur me'moriy yodgorliklaridan biri bu Ark qo'rg'onidir. U shahar markazida joylashgan bo'lib, asrlar davomida siyosiy, harbiy va madaniy markaz sifatida xizmat qilgan. Ark qo'rg'oni Buxoro amirligining poytaxti bo'lib, shaharning eng oliv hukmdorlari yashagn saroy hisoblangan.

Ark qo'rg'onining tarixi:

Ark qo'rg'oni miloddan avvalgi davrlarda, taxminan IV asrda qurilgan deb taxmin qilinadi. Ark qo'rg'onining qurilishi bilan ko'plab afsonalar uchraydi.

Ark qal'asining qurilishi haqidagi afsona

Ajoyib va ertakona, qadimiy va noan'anaviy, qadimgi sharq va sehrli-bu shubhasiz "olijanob maskan" Buxoro shahri. Buxoroning qadimiyligini va Sharqning sehrli muhitini his qilish uchun labirintni eslatuvchi tor ko'chalarga kirib, uylarning qadimiy devorlarini ko'zdan kechirish yoki hech bo'limganda eski bozorning xushbo'y, sharq guldastasi ila shirin havosini his qilish kifoya. Buxoroni abadiy sevib qolish ham ehtimoldan xoli emas! Qadimdan Buxoro afsonalarga to'la. Afsonalardan biriga ko'ra, Buxoroning bиринчи аholisi, fors shahzodasi Siyovush qurgan Ark qal'asi o'rнida qo'nim topgan. Shahzoda Afrosiyob podshohining qizini qo'lini so'rash uchun kelganida, otasi yigitga bir shart qo'yadi.

Unga ko'ra yigit bitta buqa terisidek o'lchamli hududda istehkom o'rnatishi, shundan so'nggina to'y bo'lishi kerak edi. Aqlli yigit qo'yilgan shartlardan kelib chiqib, qarorgoh tuzilishini o'ylab topadi. U terini ingichka kesimlarga kesib, bir -biriga bog'lab qo'yadi va shu doirada saroyning kichikroq nusxasini quradi. Shunday qilib, bu joyda to'liq qal'aning qurilishi boshlandi. Eng ko'hna madaniy meros obyektlaridan biri Ark qal'asi bo'lib, u qadimda Buxoro shahrining markazi hisoblangan. Buxoro arki milodning boshlarida qurila boshlanib, XVI asrda Shayboniylar sulolasini davrida ansambl holiga kelgan.

Ark qo'rg'oni haqida ma'lumotlar:

Ark qal'asining barpo etilishi Eron podshosi va turk ayolining farzandi Siyovush nomi bilan bog'liqdir. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Siyovush Samarqand podshosi Afrosiyobdan yengilgach, shu yerda – Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining sohilida to'xtagan va shaharning yaratilishiga asos solgan. Siyovush Afrosiyob tomonidan o'ldirilganidan keyin Buxoroning Sharq darvozasi yonida ko'milgan degan rivoyatlar bor.

VII asrda Buxoro hokimi Bidun vayrona holiga kelgan arkni qayta tiklatgan. O'sha davrda ark oldida katta maydon – registon, uning atrofida savdogar va zodagonlarning yuzlab qo'rg'onlari bo'lgan. Hokim va uning qarindoshlari qo'rg'oni yonida asosiy shahar – shahriston joylashgan.

Ko'plab me'moriy yodgorliklarni o'zida jamuljam etgan ko'hna Ark qal'asi ko'p asrlar mobaynida amirlikning qarorgohi bo'lib kelgan. Bu yerda amir, uning bosh vazirlari, harbiy boshliqlar, amirning ko'p sonli xizmatchilari yashaganlar. Ark qal'asida hukmdorlar uchun saroy, ko'rinishxona, masjid va turar joy binolari bunyod etilgan.

Ark qal'asi baland mustahkam peshtoq bilan ulug'langan. Registon maydonining salobati hokimiyatning buyukligini ko'rsatgan, uni bosib olish mumkin emaslik belgisini bildirgan. Uning devorlari tevaragida shahriston joylashgan. Shahristonni savdo-hunarmandchilik maskani – rabot qurshab turgan.

Ark qal'asida Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Farobi, Umar Xayyom singari ulug' insonlar yashab ijod qilganlar. Ark to'g'risida Abu Ali ibn Sino quyida keltirilgan fikrni bildirgan: "Men bu yerdagi kutubxonada shunday kitoblarni topdimki, ularni avval ko'rmaganman va umrimda boshqa ko'rmadim ham. Men ularni o'qidim va shundan keyin har bir olimning o'z fani bo'yicha o'rnnini angladim. Mening oldimda fanlarning tubidagi shunday eshiklari ochildiki, men ularni tasavvur ham qilolmasdim. Arkdagi kitobxonaning keyingi taqdiri sir bo'lib qolgan. Kutubxona janglardan birida talab ketilgan bo'lsa ajab emas", degan ma'lumotlar bor.

Ark qal'asi to'g'risida birinchi yozuvlar Abu Baxr Narshaxiyning (899-939-yillar) "Buxoro tarixi" kitobida ham uchraydi. Buxoro podshosi Bidun bu qal'ani qurdi, ammo u tezda buzildi, yana yangidan qurdi, u yana buzildi. Shundan keyin uzoqni ko'ra biladigan dono kishilarni chaqiradi. Donishmandlar arkni katta ayiq yulduzi shaklida barpo etishni maslahat berdilar. Ark qal'asi ana shu shaklda quriladi, keyin esa u buzilmadi degan ma'lumotlar bor.

Ark qal'asi yer ustidagi katta balandlik, u balandligi 20 m cha bo'lgan tepalik ustiga qurilgan. Ark g'arbdan sharqqa cho'zilgan noto'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Janubi-sharq burchagi biroz kesilgan. U qadimiyligi va hamisha navqiron Buxoro shahrining g'arb tomonida joylashgan. Qal'a devorining uzunligi 789,6 m., balandligi 16-20 m., yer maydoni 3,96 ga ni tashkil etadi.

Ark qal'asi bir necha marta ta'mirlangan va qayta qurilgan. Ko'tarila boruvchi yo'l (pandus) orqali arkning g'arb tomonidan ulkan yog'och darvoza (XVI asr) orqali ichkariga kiriladi. Pandusning uzunligi 20 m ni tashkil etadi. Uning ikki yoni massiv toshli piramida bilan o'ralgan.

Ark qal'asi peshtoqining ikki tarafidagi burchaklardagi minorachalar – "guldastalar" konstruksiyasi va ular oralig'idagi uch qavatli bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dolon – yo'lakning chap devorida 12 ta va o'ng devorida 13 ta taxmon-tokcha joylashgan. Chap tomondagи tokchalarning ba'zilarida zindonga kiradigan eshikchalar bor.

"Guldasta"lar tagida xavfli jinoyatchilar saqlanadigan zax va dim yerto'la – kanaxonalar bo'lgan. Dolonning o'ng tomonidagi o'rta tokchada afsonaviy qahramon Siyovush arvohiga Navro'z bayramlarida chiroq yoqilgan. Amir saysxonasi (otxonasi) ham shu yerdagi zinadan kirilgan (otxona mahbuslar joylashgan xonalar ustida bo'lgan).

Dolondan chiqaverishda to'pchi boshining mahkamasi, shu yerdagi ayvon tagidagi yerto'lada esa qyinoqxona bo'lgan. Undan sal narida (g'arbiy burchakda) XVIII asrda peshayvonli Juma masjidi qurilgan. Masjid devorlarini ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur'on oyatlaridan bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girrix naqshlar bilan bezatilgan.

Ark qal'asining shimoli-g'arb burchagida to'pchi boshining uyi joylashgan. Masjidning sharq tarafida oshxona, orqa tarafida zarbxona (oltin, kumush va chaqa tangalar zarb qiladigan xona) joylashgan. Zarbxonaning shimoli-sharqida zargarxona, janubida

devonbegining mahkamasi va qushbegiga qarashli binolar bo'lgan (ba'zi binolar hozir ham bor). Juma masjididan boshlangan tor yo'lak qushbegi hovlisi orqali chorsuga tutashgan.

Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan katta hovli – ko'rinishxona o'rnashgan. U yerda elchilar qabul qilingan va amirlarning taxtga o'tirish marosimlari o'tkazilgan. Hovliga kiraverishdagi naqshli peshtoq 1605-yilda qurilgan. Hovlining uch quyosh tushar tomoni peshayvon bilan o'ralgan. Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo'lib, ularning qoshi pastdan yuqoriga yo'g'onlashib boruvchi muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taxt ana shu ayvondagi taxtiravon tagida turgan.

Hovlining janub tomonida Mehmonxonai Rahimxoniy va qorixona qurilgan (XVIII asr). Bu binolar tagida yerto'lalar bo'lib, ularda xazina saqlangan. Arkning g'arb tomonidagi hovlida mirzalar va xizmatchilar uchun ikki qavatlari binolar qurilgan. Sal narida salomxona, undan Sharq tomonda mehmonxonalar, mansabdorlarga qarashli boshqa binolar (miyon hovli) joylashgan. Janubroqda hammom, uning Sharq tomonida kichkina masjid qurilgan, ular hozirgacha saqlangan.

Arkning markazida o'rda (amirning xotinlari turadigan uylar), shimolida qushbegi xotinlari turadigan uylar joylashgan.

Hammomning sharqida duxtarxona – amir haramidagi qizlar uylari o'rnashgan. Shimoli-sharqiy burchakda Chil duxtaron masjidi va Battol g'ozi mozori bo'lgan. Arkning sharqiy devori bo'ylab g'ulombachchalar (soqchilar) xonasi, janubi-sharqiy burchakda dorixona (o'q-dorilar xonalari) joylashgan. Hozirgi paytda bu binolarning taxminan 20%ni saqlangan. Arkning g'arbiy devoridan boshqa hamma devorlari va ularning burchaklardagi minoralar buzilib ketgan.

Ark ansambli mustaqillik yillarida so'nggi bor restavratsiya qilingan.

Agar Buxoro shahrining me'moriy yodgorliklarini o'rganmoqchi bo'lsangiz, ishni Ismoil Somoni maqbarasi (IX-XII asrlar) bilan tanishishdan boshlagan ma'qul.

Ushbu maqbara Buxoro Arkinining g'arb tomonida, undan uzoq bo'limgan yerda joylashgan.

Ark qo'rg'oni 1920-yilda Buxoro amirligi bolsheviklar tomonidan bosib olinganda jiddiy Zarar ko'rdi.Qo'rg'onning katta qismi "bombardimon" natijasida vayron bo'ldi.Shunga qaramay, uning ba'zi qismlari saqlanib qoldi va hozirda tarixiy yodgorlik sifatida qayta tiklangan.

Ark qo'rg'onining zamonaviy ahamiyati:

Hozirda Ark qo'rg'oni Buxoro shahrining eng diqqatga sazovor joylaridan biri hisoblanadi.

U sayyoohlар va tarix ixlosmandlari uchun ochiq bo'lib,muzey sifatida faoliyat yuritadi.Muzeyda Buxoro amirligi tarixi, amirlarning hayoti,hunarmandchilik buyumlari va boshqa tarixiy eksponentlar namoyish etiladi.

Xulosa. Ark qo'rg'oni Buxoroning boy tarixiy va madaniy merosini o'zida mujassam etgan yodgorlikdir.Asrlar davimoda u Shahar hayotining markazi bo'lib xizmat qilgan va bugungi kunda ham Buxoroning o'tmishini eslatib turadi.

Ushbu yodgorlik faqat Buxoro emas,balki butun Mrkaziy Osiyo tarixidagi muhim inshootlardan biri sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muminov I.A. "Buxoro tarixi"
2. Buxoro davlat muzeyi nashrlari
3. Ilmiy maqolalar: Yoqubov O."Buxoroning Ark qo'rg'oni:tarix va zamonaviy tiklanish jarayonlari", O'zbekiston tarixi jurnali va Islomov R."Buyuk Ipak yo'li va Buxorodagi tarixiy obidalar" Markaziy Osiyo madaniy merosi .
4. <http://tarixchi.zn.uz/tarixiy-obidalar-2/buxoro/ark-qal%E2%80%99asi/>
5. <https://uzbekistan.travel/uz/o/ark-qalasining-qurilishi-haqidagi-afsona/>

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ МАТЕРИАЛОВ В ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА.

Юлдашева Барно Тургуновна.

Учитель русского языка Республиканского специализированного техникума для лиц с ограниченными возможностями

Мадрахимова Раъно Эркинджановна

Учитель истории

Опорные слова: фольклор, сказка, легенда, басня, афоризмы, предание, мысль, лаконично, изречение, шедевр, добро, зло, трудолюбие, лень.

В воспитании учащихся с ограниченными возможностями на уроках русского языка, нам помогает использование фольклорных материалов. Мы изучаем сказки, легенды, басни, но можно использовать на уроках русского языка афоризмы, пословицы и поговорки.

Выше перечисленные фольклорные материалы дают возможность учащимся с ограниченными возможностями задуматься, подводить итоги, разделять образы на положительные и отрицательные. Этот материал очень легко осваивается учащимися.

Афоризм - мысль, выраженная в лаконичной, отточенной форме, имеющая характер самостоятельного изречения. В литературе, равно как и фольклоре, особое место отводится афоризмам, автором которых является, сам народ. Кроме того, все известные мыслители оставили замечательные образцы глубоких, содержательных афоризмов. Так, изречения Алишера Навои считаются шедеврами мировой литературы. Ни с чем нельзя сравнить воспитательную ценность и силу воздействия на душу детей с ограниченными возможностями, например, таких его слов:

За жизнь отца – своей пожертвовать будь рад.

И голову сложить за материнский взгляд.

Ты солнцем и луной родителей зови –

И буди щиро сияньем их любви.

По содержательности и лаконизму афоризмы можно сравнить с изречениями, в которых заключена основная идея сказок, легенд и преданий, а также с моралами басен и притч.

Глубина и сила мысли, простота и изящество выражения характерны также для пословиц и поговорок.

Пословица – меткое образное изречение, обобщающее различные явления жизни и имеющее обычно назидательный смысл, – таково толкование пословицы, данное в “Словаре русского языка”.

Поговорка – общественное выражение, обычно образное, иносказательное, не составляющее в отличие от пословицы цельного предложения.

Вот как выражена в узбекской народной поговорке главная идея приведённых афоризмов Алишера Наваи:

Кто объединился – успевает,

Кто уединился – истлевает

Эти материалы дают большие возможности для формирования основ духовности . Хотим подчеркнуть, что работа с этими материалами даст большой эффект, если использовать два вида заданий:

1. Анализируя содержание сказок, преданий, легенд, подведём учеников к выводам, которые они сделают самостоятельно, подобрав афоризм, пословицу или поговорку, наиболее точно отражающие главную идею прочитанного.

2. В работе с малыми жанрами фольклора применим обратный приём. Пусть учащиеся разовьют идею пословицы, поговорки, подтвердив её примерами из жизни, литературы, из былин или сказок.

Из разнообразных изречений можно выбрать для одного урока высказывания, объединённые общей темой – на пример дружбы и любви. В каждом из них говорится о высокой ценности и значении дружбы и об опасных последствиях недружелюбия, вражды. Каждое из изречений доказывает эту мысль, по-своему.

Например: Повинен ты! – кричал зятёк,

Душила тестя злоба

Им в споре было невдомёк

Что виноваты оба.

Учащиеся должны понять, что смысл данного изречения заключается в следующем: злоба, не сдержанность помрачают ум и рассудок спорящих. Забываются все правила приличия, старшие не хотят понять младших, младшие забывают об уважении к старшим, нарушаются даже самые элементарные нормы этикета, никто не хочет познавать свои ошибки, каждый считает правым только себя и становится в позу не справедливо обиженного. И спорящие теряют способность здраво рассуждать, чувства берут верх над разумом. Злоба ослепляет их, они не хотят понять, что виноваты оба. В результате страдает дело, в проигрыше оказываются обе стороны.

Это изречение учит дружбе, сдержанности, призывает здравомыслию, взаимоуважению, соблюдению правил приличия и речевого этикета.

Чтобы задействовать этот воспитательный потенциал изречения, можно дать учащимся с ограниченными возможностями следующие задания:

1. Помните, в каких из изученных басен, легенд, притч или сказок описывается подобный случай.

2. Расскажите какой – либо случай из вашей жизни или жизни ваших близких, когда в результате спора несогласия или недружелюбного отношения друг к другу проигрывали обе стороны.

Тема дружбы и вражды освещается в другом афоризме:

Не бойся друга, ставшего врагом.

Врага побойся, ставшего дружком.

В данном афоризме говорится о необходимости отличать друга от врага. Друг ,если он настоящий, даже став врагом, не будет причинять вреда, ибо он всегда остаётся, честен и благороден и никогда не будет злословить или мстить другу, хотя и бывшему.

Цель такой работы – развитие мышления и связной речи учащихся с ограниченными возможностями, активизация словарного запаса и умения думать и говорить на русском языке. На таком занятии учащиеся с ограниченными возможностями перебирают в памяти все известные им жизненные ситуации и прочитанные сказки, легенды, притчи, басни;

Вспоминают их основной смысл, чтобы сравнить с содержанием афоризма или поговорки.

В процессе такой работы могут возникнуть дискуссии, споры по поводу точности выводов из того или иного случая, могут быть дополнения или исправления – слов, пойдёт живая беседа и будет речь спонтанная, а не заученная речь учащихся с ограниченными возможностями как результат их активной мыслительной деятельности. В этом и заключается образовательный эффект работы с афоризмами и пословицами.

Но огромен и воспитательный эффект этого вида работы. Он намного значительнее, чем образовательный, ибо каждый разговор о добре и зле, о правде и лжи, о скромности и кичливости, о трудолюбии и лени, о пользе знаний и вреде невежества, о силе слова, несомненно, оставит в душах учащихся глубокий след.

ИСПЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Жуков В.П., Русская фразеология / В.П. Жуков, А.В. Жуков. - М.: Высшая школа, 2001
2. О. Барноев. Использование фразеологизмов в устной и письменной речи (на материале художественных произведений)
3. Кудрявцева Т.С., Русский язык. Текст. Грамматика. Культура речи .2002

SUPERKOMPYUTERLARNING IMKONIYATLARI VA TASHKIL ETILISHI

Umarqulov Nurbek Dilmurod o'g'li

Tojiyev Asilbek Eshtemir o'g'li

Qo'shmonov Jaloliddin Nabijon o'g'li

Maxamatjonov Muxammadqodir Rashidbek o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Kiberxavfsizlik fakulteti Axborot xavfsizligi yo'nalishi

Annatatsiya: Mazkur maqolada superkompyuterlarning imkoniyatlari va ularning ichki tashkil etilishi haqida ma'lumot berilgan. Superkompyuterlar yuqori hisoblash quvvati, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishslash va murakkab ilmiy masalalarni hal qilish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, maqolada ularning protsessorlar, tarmoq tizimi, xotira vasovutish kabi asosiy tarkibiy qismlari hamda ularni samarali ishlatish uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minot xususiyatlari yoritilgan. Ushbu maqola superkompyuterlarning hozirgi va kelajakdagagi texnologik rivojlanishdagi o'rnnini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Superkompyuter, CPU, GPU, protsessorlar tizimi, tarmoq tizimi, sovutish tizimi, xotira tizimi, dasturiy taminot.

KIRISH

Superkompyuterlar – bu dunyodagi eng kuchli hisoblash texnologiyalaridan biri bo'lib, ulkan hisoblash quvvati va tezligi bilan ajralib turadi. Ular ilmiy va texnik tadqiqotlar, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishslash, sun'iy intellektni o'qitish, meteorologik prognozlar, atom reaktorlarini simulyatsiya qilish va boshqa murakkab vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi.

Superkompyuterlarning asosiy maqsadi – insonning oddiy hisoblash imkoniyatlaridan tashqarida bo'lgan masalalarni tez va aniq hal qilishdir. Ular minglab protsessorlardan iborat bo'lib, bir vaqtning o'zida ko'plab hisob-kitoblarni bajaradi. Shu bilan birga, superkompyuterlar maxsus sovutish tizimlari va yuqori tezlikdagi tarmoqlar bilan jihozlangan. Hozirgi kunda superkompyuterlar energetika, farmatsevtika, kosmik tadqiqotlar va iqlim o'zgarishlarini o'rganishda muhim rol o'yнaydi. Ular nafaqat murakkab muammolarni hal qilish, balki texnologik yutuqlarni rivojlantirish uchun ham asosiy vosita hisoblanadi.



1-rasm. Superkompyuterning zamonaviy ma'lumotlar bazasi.

Superkompyuterlar insoniyat oldidagi eng murakkab va katta hajmdagi masalalarni hal qilishda muhim o'rinn tutadi. Ularning imkoniyatlari keng qamrovli bo'lib, turli sohalarda ulkan yutuqlarga erishishda yordam beradi. Quyida superkompyuterlarning asosiy imkoniyatlari kengroq yoritilgan:

Katta hajmdagi hisob-kitoblarni amalga oshirish. Superkompyuterlar murakkab matematik va texnik masalalarni tezlik bilan hal qilish imkonini beradi. Misol uchun, astronomik tadqiqotlarda koinotdagi jarayonlarni o'rganish va yulduzlarning evolyutsiyasini hisoblash, atom va molekulyar darajadagi jarayonlarni modellashtirish, masalan, yangi materiallar yaratish.

Ilmiy modellashtirish va simulyatsiyalar. Superkompyuterlar yordamida tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishi, seysmik jarayonlar va boshqa hodisalarni modellashtirish amalga oshiriladi. Masalan, meteorologiyada ob-havo prognozlarini yanada aniq qilish, I qlim o'zgarishlari bo'yicha uzoq muddatli prognozlarni aniqlash.

Sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish. Superkompyuterlar mashinaviy o'qitish algoritmlarini tez va samarali o'rgatadi. Bu imkoniyat sun'iy intellekt tizimlarini rivojlantirishda juda muhimdir. Misol uchun, avtomatlashtirilgan transport tizimlari, tibbiyotda kasalliklarni aniqlash va davolash bo'yicha sun'iy intellekt tizimlarini yaratish.

Katta ma'lumotlarni qayta ishslash (Big Data). Superkompyuterlar milliardlab ma'lumotlarni qayta ishslash qobiliyatiga ega. Misol uchun, moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish va prognoz qilish, genom tadqiqotlari orqali inson genlarini chuqur o'rganish va genetik kasalliklarni davolash yo'llarini topish.

Yuqori aniqlikdagi hisoblash va yangi texnologiyalar yaratish. Superkompyuterlar bilan yangi texnologiyalarni sinash va yaratish osonlashadi. Masalan, aviatsiya va kosmonavtika sohasida yangi samolyot va raketa dizaynlarini ishlab chiqish, atom energiyasini boshqarish va yadroviy reaktorlar xavfsizligini ta'minlash.

Superkompyuterlarning tashkil etilishi murakkab tizimdan iborat bo'lib, ularning yuqori samaradorligini ta'minlash uchun bir nechta texnologik elementlarning uyg'unligi talab qilinadi. Superkompyuterlar juda katta hajmdagi hisob-kitoblarni bajarish, ulkan

ma'lumotlarni qayta ishlash va murakkab masalalarni hal qilish uchun maxsus mo'ljallangan. Ularning tashkil etilishi bir nechta asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi va ularning har biri birqalikda ishlaydi. Superkompyuterning markaziy qismi protsessorlar tizimidir.

Oddiy kompyuterlar bir necha protsessorga ega bo'lsa, superkompyuterlar minglab yoki millionlab protsessorlardan tashkil topgan. Bu protsessorlar birqalikda ishlash orqali parallel hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Protsessorlar GPU (grafik protsessorlar) va CPU (markaziy protsessorlar) kombinatsiyasidan iborat bo'lishi mumkin. GPU-lar asosan katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashda va sun'iy intellektni o'qitishda ishlatiladi, CPU-lar esa umumiy hisob-kitoblarni bajarishda muhim rol o'ynaydi.

Superkompyuterlar uchun ma'lumotlarni tezkor va samarali almashish juda muhimdir. Buning uchun ular yuqori tezlikdagi ichki tarmoq bilan jihozlangan. Bu tarmoq protsessorlar va saqlash tizimlari o'rtasida ma'lumotlarni tezkor yetkazib berishni ta'minlaydi. Ichki tarmoq texnologiyalari orasida InfiniBand va boshqa maxsus protokollar ishlatiladi.

Bu tarmoqlar ma'lumotlarning minimal kechikish bilan uzatilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Xotira tizimi superkompyuterlarning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ularda katta hajmdagi operativ xotira (RAM) mavjud bo'lib, bu hisoblash jarayonlarining tezligini oshirishga xizmat qiladi.

Operativ xotiradan tashqari, superkompyuterlar saqlash qurilmalari, masalan, SSD va NVMe drayvlar bilan jihozlangan. Ushbu saqlash tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor yozish va o'qish imkonini beradi. Bundan tashqari, ma'lumotlarni uzoq muddatli saqlash uchun katta hajmdagi magnit disklardan foydalaniladi. Superkompyuterlarning ishlashi davomida ulkan miqdorda issiqlik hosil bo'ladi.

Shu sababli, samarali sovutish tizimlari ularning tashkil etilishining ajralmas qismi hisoblanadi. Sovutish tizimlari issiqlikni tezda tarqatib yuborish va qurilmalarning haddan tashqari qizib ketishini oldini olish uchun maxsus mo'ljallangan.

Ko'pgina superkompyuterlar suv bilan sovutish tizimlaridan foydalanadi, chunki bu usul eng samarali hisoblanadi. Ayrim hollarda havoni sovutish yoki suyuqlik bilan sovutish texnologiyalari ham qo'llaniladi. Dasturiy ta'minot superkompyuterlarning muvaffaqiyatli ishlashida muhim ahamiyatga ega. Ular odatda maxsus operatsion tizimlarda ishlaydi, masalan, Linuxning superkompyuterlar uchun mo'ljallangan versiyalari.


Bu dasturiy ta'minot katta hajmdagi hisoblash ishlarini boshqarish, parallel hisob-kitoblarni muvofiqlashtirish va foydalanuvchilarga qulay interfeysni taqdim etish vazifalarini bajaradi.

Bundan tashqari, maxsus algoritmlar va dasturlar superkompyuterning kuchini to'liq ochib berishga yordam beradi. Shuningdek, superkompyuterlarning tashkil etilishida energiya samaradorligi ham katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy superkompyuterlar energiyani minimal darajada sarflab, maksimal ishlashni ta'minlay oladi. Bu uchun ular energiyani boshqarish va tejash texnologiyalari bilan jihozlangan.


Energiya samaradorligini oshirish nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ham muhimdir.

Protsessorlar tizimi. Superkompyuterlarda ko'p miqdordagi protsessorlar birgalikda ishlaydi. Bu protsessorlar CPU (markaziy protsessorlar) va GPU (grafik protsessorlar) bo'lishi mumkin. CPULar umumiy hisoblash ishlarini bajaradi, GPULar esa parallel hisoblashni amalga oshirib, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda qayta ishlash imkonini beradi.



2-rasm. Zamonaviy protsessorning (CPU) tasviri.

Tarmoq tizimi. Superkompyuterning barcha komponentlari o'rtaida yuqori tezlikdagi tarmoq mavjud. Bu tarmoq, masalan, InfiniBand yordamida ma'lumotlarni tezkor uzatish va kechikishlarsiz aloqani ta'minlaydi.



3-rasm. Superkompyuterning tarmoq tizimi.

Xotira tizimi. Bu tizimlar ma'lumotlarni tezda o'qish va yozish imkonini beradi. Operativ Xotira (RAM), superkompyuterlarda katta hajmdagi RAM ishlataladi, bu esa

yuqori tezlikda ma'lumotlarni saqlash va olish imkonini beradi. Bunda xotira o'zaro sinxronlashgan bo'lib, ma'lumotlar almashinuvি tez amalga oshadi. Xotira iyerarxiyasi, xotira ma'lumotlar tugunlari orasida muvozanatni ta'minlash uchun iyerarxik tarzda tashkil etilgan. Bu esa resurslardan samarali foydalanishni taminlaydi.

Sovutish tizimi. Superkompyuterlar katta miqdorda issiqlik ishlab chiqaradi, shuning uchun ular maxsussovutish tizimlari bilan jihozlanadi. Ko'pincha, suv bilansovutish usuli ishlatiladi.

Dasturiy ta'minot. Superkompyuterlar maxsus operatsion tizimlar va dasturlar bilan ishlaydi. Dasturiy ta'minot, masalan, parallel hisoblashni boshqarish va resurslarni optimallashtirishga yordam beradi.

Xulosa

Superkompyuterlar zamonaviy texnologiyalar sohasida eng kuchli va samarali hisoblash tizimlaridan biridir. Ularning imkoniyatlari juda keng bo'lib, ilmiy tadqiqotlar, katta ma'lumotlarni qayta ishlash, sun'iy intellektni rivojlantirish va boshqa murakkab masalalarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Superkompyuterlar yordamida iqlim o'zgarishini prognoz qilish, yangi dori vositalarini ishlab chiqish, atom va molekulyar simulyatsiyalarni bajarish kabi masalalar tez va aniq hal etilmoqda. Superkompyuterlarning tashkil etilishi bir nechta asosiy komponentlardan iborat: protsessorlar tizimi, yuqori tezlikdagi tarmoq, katta hajmdagi xotira, samaralisovutish tizimlari va maxsus dasturiy ta'minot.

Ularning o'zaro uyg'un ishlashi superkompyuterlarning yuqori ishlash tezligini va samaradorligini ta'minlaydi. Bu texnologiyalar nafaqat bugungi kundagi, balki kelajakdagi texnologik yutuqlarni yaratishda ham asosiy vosita hisoblanadi. Shunday qilib, superkompyuterlar nafaqat ilmiy va texnik tadqiqotlarni rivojlantirishda, balki global muammolarni hal qilishda ham katta ahamiyatga ega. Ularning imkoniyatlari va tashkil etilishi kelajakdagi innovatsiyalarni yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.Z.Miryusupov , J.X.Djumanov . Kompyuter arxitekturasi . T.:«Aloqachi» , - 2017, 140b.
2. Kaufmann, Morgan. Introduction to High-Performance Computing for Scientists and Engineers. Morgan Kaufmann, 2010.
3. Patterson, David A., and John L. Hennessy. Computer Architecture: A Quantitative Approach. Elsevier, 2017.
4. Sterling, Thomas. High Performance Computing: Modern Systems and Practices. Morgan Kaufmann, 2018.
5. Dongarra, Jack, et al. "The International Exascale Software Project Roadmap." International Journal of High Performance Computing Applications, vol. 25, no. 1, 2011, pp. 3-60.
